جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 30-avgust
№ 36(36)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



SURUR

BAXT VA BIRDAMLIK BAYRAMI



Har yilgi an’anaga ko‘ra, biz qutlug‘ Istiqlol shodiyonalaridan avval bir nafas tin olamiz, xayolga tolamiz, yaqin tarixga nazar solamiz. Shunda olis-yaqin moziyning manzaralari xayol ko‘zgusida beixtiyor akslana boshlaydi. Tarixda o‘tgan ulug‘ alloma ajdodlarimizning jahon ilm-faniga qo‘shgan ulushlari, insoniyat tamaddunida tutgan o‘rinlari ko‘zimizni quvontiradi, ruhimizni yayratadi. Iftixor tuyamiz. Yaqin tarixga nazar solganimizda esa jadid bobolarimizning fidoyiliklari yodga tushadi.

Ayni damda bir muddat qalbimizni mahzunlik egallaydi. Zotan, mash’um qatag‘on dovuliga duch kelgan millat oydinlari, ma’rifatparvar jadidlar qismatiga hech birimiz befarq bo‘la olmaymiz. Qayg‘u aralashgan shodlikni har kim sezib, bilib, anglab turadi. Qayg‘uga botgan odam birdan quvonadi. Quvnoq odam beixtiyor hazin tortadi. Bir vaqtning o‘zida vujud va ruhda yashin tezligida kezingan shunday ikki sifatli kayfiyat odamni fikr daryosiga cho‘mdiradi. Shunda alloma jadidlarning shonli Vatan taraqqiyoti, millatni uyg‘otish yo‘lidagi xizmatlari xususida o‘ylay boshlaydi odam. Shunda beixtiyor birdamlik va ogohlikka chorlov qo‘ng‘iroqlari jaranglaydi miyamizning mudroq hujayralarida. Uyg‘onamiz. Sergak tortamiz, o‘ng-u so‘limizga boqamiz, o‘zimizga, tegramizga teranroq nazar solamiz. Yurakda bir og‘riq ham paydo bo‘ladi. Mustabid tuzum zamonidagi erksiz, adolatsiz va tilsiz kunlardan, zulmkor, qonxo‘r va qattol, qo‘y terisini yopinib yurgan bo‘rilarning qilmishlaridan nadomat chekamiz... Ammo, azizlar, bugun nadomat zamoni emas! Bugun shukronalik, shodiyona va fikr zamonidir.

Darvoqe, tafakkurga kishan solingan o‘sha mash’um qatag‘on davrlarida ham o‘z el-yurti taqdiriga befarq bo‘lmagan chin ziyolilar jadidlarning tirik satrlariga takror va takror murojaat qildi. Erkin tafakkurli sharif muallimlar ulardan ruh va kuch-quvvat oldi. Shu bois gohi oshkora va ba’zan zimdan bir-birlariga qarab: “Tiriksan, o‘lmagansan, Senda odam, sen-da insonsen. Kishan kiyma, Bo‘yun egma, Ki sen ham hur tug‘ulg‘onsen”, deya hurriyatga chorladi. Ore, or-nomusli, mard o‘g‘lonlarning mudrashga haqqi yo‘qdir! Yalqovlar, johillar, mudroqlar, ongsizlar, pallabinlar, loqaydlar ustida “xo‘ja bo‘lmoq istagan”lar hamma zamonlarda bor edi.

(Davomi 2-sahifada).

OLIMPIADA ILHOMLARI

Yaqinda Fransiyaning Parij shahrida bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida mamlakatimiz atletlari beqiyos mahorat, matonat va iroda ko‘rsatib, milliy sportimiz rivojida yangi sahifa ochdi. 13 medalni qo‘lga kiritib O‘zbekistonni dunyo bo‘yicha 13-o‘ringa olib chiqdi. Sportchilarimizning olamshumul yutuqlari yurtimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati va ulkan imkoniyatlarini yana bir bor dunyoga namoyon etdi.



“OLIMP UZRA HILPIRAR O‘ZBEKISTON BAYROG‘I”

Ushbu yuksak g‘alaba Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga atletlarimizning to‘yonasi bo‘ldi. Muzaffar yurishlardan ilhomlangan qalam ahlining yuragida jo‘sh urgan g‘urur va iftixor tuyg‘ulari she’r-u dil izhorlariga aylanib, mo‘jaz bir to‘plam shaklini oldi.

Joriy yilning 28-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parijda bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan O‘zbekiston sport delegatsiyasi vakillari bilan uchrashuvda ushbu sovg‘ani qahramonlarimizga tortiq qildi va bu haqda shunday dedi:

“Olimpiadachilarimizning buyuk g‘alabasi butun xalqimiz qatori ijod ahlini – shoirlar va jurnalistlar, san’atkor va blogerlarni ham ruhlantirib yubordi. Sizlarning sha’ningizga atab o‘nlab she’rlar, maqolalar yozildi, hatto chet ellarda ham qo‘shiqlar kuylandi. Bu tarixiy voqeaga bag‘ishlab, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan “Olimp uzra hilpirar O‘zbekiston bayrog‘i” deb nomlangan yangi kitob kuni kecha nashrdan chiqdi.

Bugun sizlar kabi qahramonlarimiz jasorati tarannum etilgan ushbu kitobni har biringizga esdalik sovg‘asi sifatida taqdim etar ekanmiz, ijodkorlarimizga ham, albatta, rahmat aytamiz”.

Prezidentning bu e’tirofi mazkur nashrning nufuzi va qiymatini yanada oshiradi. Sportchilarimiz qo‘lga kiritgan g‘alabalardan quvongan qo‘shni davlat yetakchilaridan tortib, taniqli namoyandalargacha o‘z dil izhorlarini bildirishgan.

To‘plamga jahon ommaviy axborot vositalarida sportchilarimizning yutuqlari to‘g‘risida e’lon qilingan eng sara maqolalar ham kiritildi.

Kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida “Ijod nashr” nashriyotida chop etildi.

Bu kitob qalam ahlining Istiqlolimizning o‘ttiz uch yilligi bayramiga munosib tuhfasi bo‘lishiga ishonamiz.

Fozil FARHOD

DIL IZHORI

Davlatlar birligi – dil yaqinligi

Men o‘zimni ozarbayjonlik o‘zbekday his qilaman. Chunki O‘zbekistonga o‘z uyimga borganday boraman, begonalik his qilmayman. O‘zbekiston bilan bog‘liq bir yaxshi xabar eshitsam, vatanim haqida eshitgan mujdam kabi quvonaman.



Almaz ULVI,
turkolog olima
Ozarbayjon

Yaqinda O‘zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlarining Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani imzolashi esa yuragimga nurday kirdi. Bu ishda qadrdon do‘stlarning quchoqlashib ko‘rishgani kabi samimiyat bor. Ushbu Ittifoqchilik shartnomasi et bilan tirnoqday bir-biriga jipslashib ketgan o‘zbek va ozarbayjonlarning dil birdamligi bo‘lib imzolangani shubhasizdir.

Qardosh o‘zbek xalqiga Mustaqillik bayrami muborak bo‘lsin! Do‘stlik rishtalari uzilmasin!



Abdulhaq RAHIMIY,
tadqiqotchi
Afg‘oniston

O‘zbek va afg‘on xalqlari bir-biriga yon qo‘shni – jon qo‘shni. Hazrat Navoiy, shoh va shoir Bobur hamda juda ko‘p tarixiy allomalarning ikki yurtni ham yurtimiz deb bilgani bugun xalqlarimiz birdamligi va yaxshi qo‘shni bo‘lishiga asosdir.

Keyingi yillarda qo‘shnichiligimiz mustahkamlanib, ham davlatlarimiz o‘rtasida, ham xalqlarimiz orasida bordi-keldi munosabatlari sur’ati ortib bormoqda. Yaqin oylardagi O‘zbekiston hukumati vakillarining Afg‘onistonga tashrifi, shuningdek, Afg‘oniston hukumati vakillarining o‘zbeklar yurtida bo‘lib, juda ko‘p sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolli yo‘llari bo‘yicha kelishuvlarga erishgani ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarining hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillari asosida rivojlanib borayotganidan dalolatdir. O‘zbekiston va Afg‘oniston davlatlarining azaliy do‘stligi abadiy bo‘lsin! Xalqlarimiz tinch-xotirjam bo‘lsin! O‘zbekiston davlatining erki, hurriyati, istiqloli zavol ko‘rmasin, Mustaqillik bayrami muborak bo‘lsin!

(Davomi 2-sahifada).

TAQDIMOT



SABOT SINOVI

Kecha Yozuvchilar uyushmasida taniqli shoira, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Sharifa Salimovaning “Qabohat saltanati yoxud qor qo‘ynida lolalar” nomli she’riy romani taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Asar o‘tgan asrning mudhish qatag‘oni qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan. Unda beayb jazoga tortilgan, tuhmatga uchragan yurtdoshlarimizning fojiali qismati tasvirlangan.

Tadbirda taniqli yozuvchi-shoirlar, adabiyotshunos olimlar, madaniyat va san’at namoyandalari ishtirok etib, asar haqida fikrlarini bildirishdi. Quyida O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurovning mazkur roman to‘g‘risidagi mulohazalarini e’tiboringizga havola etamiz.

TAHRIRIYAT

XX asr 20-30-yillarida xalqimizning asil farzandlari boshidan kechirgan o‘ta og‘ir fojialar haqida she’r bilan yozilgan katta hajmdagi asarni o‘qirkan, har qanday asabi mustahkam, irodasi metin odamning ham bu voqealar ta’sirida bitgan-bitmagan jarohatlari qaytadan yangilanadi.

(Davomi 2-sahifada).

31-AVGUST – QATAG‘ON QURBONLARINI YOD ETISH KUNI

MILLAT FIDOYILARI:

MUHAMMADXON XO‘JAYEV



Qahramonimiz Muhammadxon Xo‘jayev 1898-yili Qo‘qon shahrida tikuvchi-hunarmand oilasida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Dastlab, Qo‘qon shahridagi tatar maktabida, so‘ngra rus-tuzem maktabida tahsil olgan. Tojik, rus tillarida erkin so‘zlashgan. 1908–1912-yillarda jadid maktabida o‘qigan. Maktabni tamomlagach, xonadonida jadid maktabi ochib, qo‘shnilariga saboq bergan. 1916–1918-yillarda Andijonda Ahmadbek hoji Temirbekovning paxta tozalash zavodida tarjimonlik qilgan. 1920-yildan boshlab Turkiston ASSR Adliya xalq komissarligiga ishga o‘tgan. 1920-yildan 1923-yilga qadar Samarqand viloyati Xo‘jand uyezdida xalq sudi kotibi, 1923-yildan Farg‘ona oblast sudida xalq tergovchisi lavozimlarida ishlagan. 1927-yili katta tergovchi etib tayinlangan. 1928-1929-yillari Farg‘ona viloyat prokuraturasida tergovchi, 1930–1932-yillarda Qo‘qon trikotaj sanoati uyushmasi boshqaruv kotibi vazifasida xizmat qilgan.

1931-yili O‘zSSR Oliy sudi prokurori Shamsiddin Badriddinov va “Badriddinovchilik” guruhi, avvalroq esa, “Qosimovchilik”, “Og‘aliqovchilik” ishlari bo‘yicha o‘tkazilgan sud majlislarida ko‘plab adliya organlari xodimlari qatorida Muhammadxon Xo‘jayev ham aybdor deb topilib, qatag‘on domiga tortilgan. U dastlab, oliy jazo – otuvga hukm qilingan, ammo keyinroq otuv hukmi 10 yillik mehnat-tuzatuv lagerida qamoq jazosini o‘tashga o‘zgartirilgan. Qahramonimiz 1932-yil Ural o‘lkasining Krasnovishersk hududida joylashgan mehnat-tuzatuv lageriga jazoni o‘tash uchun etap qilingan.

(Davomi 7-sahifada).

BAXT VA BIRDAMLIK BAYRAMI



Boshlanishi 1-sahifada.

Hurlikdan mujda bergan uyg‘onish shabadalari yelgan mahali erkparvar adiblarimiz ochiqdan ochiq: “Ay! Bo‘ynimga kishan solib, halokatga sudragan, Ko‘zlaringni zaharlatib o‘ynatmag‘il, bas endi!” degan mardona misralarni bitishdi. Ma’rifat bayrog‘i ostiga jamlangan xodim ul-millat – millat xodimlari ona zamin, ona Vatan qadrini, munbit tuproq iforini mayda, shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishdi. Shu bois “Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?” deyishdi va “Mana jonim!” dedilar. “Nomusmi, vijdon bila iymonmi kerakdir?” “Marhamat!” dedilar. Yurt qayg‘usi, el obodligi bobida zahmatlar chekkan fidoyi jadid bobolarning amali va a’moli shunday edi. Afsuski, Uchinchi Renessans bunyodi va dovrug‘i uchun ma’naviy tayanch-umurtqa suyagi butun shaxs o‘laroq shakllanayotgan va o‘zlarining muhtasham kitoblarini yoza boshlagan millat gullarining boshi tanasidan judo qilindi. Bu mudhish voqelik XX asrda qatag‘on nomi bilan tariximizning “eng kirlik, qora” sahifalaridan joy oldi. Lekin zaxmi hamon ketmadi. Minglab, yuz minglab aybsiz aybdorlar, qanchadan qancha ota-onalarning begunoh farzandlari, qanchadan qancha go‘daklarning ota-onalari o‘limga hukm qilindi. Ular kitob o‘qigani, bilim olgani, zulmatda chiroq yoqqani, quruqshab yotgan cho‘lga obihayot olib borgani, so‘qir ko‘zlarni ma’rifat malhami bilan davolagani uchun “ma’yublar kursisi”ga o‘tqazildi. Ular yurt Istiqlolini orzu qilgani uchun hibsga olindi; o‘z Vatani nomini dunyodagi eng dongdor mamlakatlar yonida ko‘rish orzusi bilan ishlayotgani uchun gunohkor sanaldi. Zamonga mos ilg‘or texnika orqali qishloq xo‘jaligining og‘ir mehnatini yengillatish, avtolar, uchoqlar vositasida olis yo‘llarini yaqinlatish niyatida o‘qiganlari, yelib-yugurganlari uchun mahv etildi. Hayhot, farovonlik orzusi uchun sud qilish, millatni suygani uchun surgunga yuborish, eng mudhishi, hech bir aybi isbotlanmagan tarzda so‘rovsiz o‘limga hukm etish – xo‘sh, bunday xunrezlik Yer yuzining qaysi mamlakati tarixida bor?! Qatag‘onga uchraganlar ruhini abadiy chirqiratadigan bu ulkan savolga javob topiladimi?! Savollar ketidan savollar yog‘iladi va eng tuban, g‘alamis, iymonsiz, sotqin kimsaning o‘z yonidagi aybsiz odamga nisbatan hayvoniy munosabat doirasidan nomukammal-jinday javob topiladi, xolos...

Darhaqiqat, har yili avgustning oxiriga kelib, qatag‘onga uchragan millat oydinlari qismati xususida o‘ylaganda bir olam fikr yog‘ilib keladi. Har ikki – mustabid va mustaqillik davrini ko‘rgan, ayni tuzumlar chegarasida istiqomat qilgan avlod – fikr odami bo‘ladi. Taqqoslaydi. O‘ylaydi. Yangi yozilayotgan tarix hodisalarini o‘z boshidan o‘tkazgan va o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan bo‘ladi. Hayotiy misollari ham yetarli ularning. Mahzunlik aralashgan qiyoslari izidan sekin-asta ruhiyatida shukronalik bilan uyg‘unlashgan shodiyona kayfiyat paydo bo‘ladi. Zero, kishansiz ozod yashash, erkin nafas olish hamma zamonlarda har qanday odam orzusi bo‘lganiga hech shubha yo‘q. Shuning uchun Mustaqillikning ilk kunlarida shoir mamnuniyat bilan:

“Shukrkim, keldi Istiqlol,
Umidim rost qil, Allohim,
Ki, shoyad beqafas bulbul
Kabi sohib chaman bo‘ldim”,

– deb dilini yozdi.

Gapimiz tuganchi shuki, bundan bir asr avval “Tarix – istiqbol tarozusidir”, degan jadidlar karvonboshisi Behbudiy hazratning hikmatlaridan ulgi olib, bemalol “Istiqlol – istiqbol tarozusidir”, degan bir fikrni ayta olamiz. Zero, mamlakat kelajagi, rivoji, obodligi, istiqboli – barcha-barchasi Istiqlol bilan bog‘liq, albatta. O‘ttiz uch yildirki, siz bilan biz bu voqelik haqiqatiga guvohmiz.

Vatan va millat g‘amida qatag‘onga uchragan ulug‘larimiz orzu qilgan Istiqlol bayramining o‘ttiz uch yillik shodiyonalari barcha yurtdoshlarimizga muborak bo‘lsin!

Bahodir KARIM,
professor

Davlatlar birligi – dil yaqinligi



Zaynobiddin ABDIRASHIDOV,
Anqara Hoji Bayram Vali universiteti professori

Boshlanishi 1-sahifada.

Abdurauf Fitrat Turkiston muxtoriyati haqida “Temur xoqonining chin bolalari yoninda, Turkistonning tubchak turklari orasinda, mundan g‘ururli, mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so‘zning borlig‘iga ishonmayman”, deb yozgan edi. Darhaqiqat, hurriyat, mustaqillik so‘zlarining eshitilishi, tuyulishi o‘zgacha. Yana Fitratdan iqtibos keltiradigan bo‘lsak, “Turkiston turkining qonini qaynatg‘uchi, imonini yuksaltguchi bir quvvat bor esa, yolg‘uz shu so‘zda bordir: Turkiston muxtoriyati”.

O‘zbek xalqi 150 yil ezildi, tahqir etildi, qo‘l-oyog‘i bog‘landi, tili kesildi, og‘zi yopildi, yeri bosildi, mol-mulki talandi, huquqi tajovuzga uchradi, insonligi oyoqosti qilindi. Lekin o‘zbek xalqi to‘zimli turdi, sabr qildi. Bu so‘zlar quruqqina emas, balki butun vujudi bilan mustaqillikni orzulagan jadidlarning yurak tubidan chiqqan so‘zlar edi. Ular millat butun borlig‘idan ajralgan bo‘lsa-da, faqat bir fikrni, orzuni yurak tubida saqladilar: Mustaqillik, Ozodlik, Hurriyat!


Inqilob bo‘ldi. Yuraklarda, qalblarda inqilob bo‘ldi. Bundan 33 yil oldin O‘zbekiston to‘la mustaqil bo‘ldi. O‘zligiga qovushdi. Jadidlar orzulagan, jonlarini fido qilgan kun kelgan edi. Oradan yillar o‘tdi, mustaqillikning dastlabki mashaqqatli, suronli yillari ortda qoldi. Bugun o‘sha chekilgan mashaqqatlarning mevalari terilmoqda. O‘zbekiston barcha jabhalarda muvaffaqiyatga erishmoqda.

Ammo bir narsani unutmasligimiz kerak: bir millatning mustaqilligi faqatgina uni e’lon qilish bilan bitmaydi. Mustaqillikni saqlamoq, qo‘rimoq kerakdir. Bu ishlar millatning vazifasidir. Mustaqil O‘zbekiston shu kungacha erishgan barcha yutuqlarini saqlash barobarida uni yanada ilgarilatish, yanada kuchli qilish, jadidlar aytganidek, taraqqiy etgan davlatlar, millatlar qatorida, bir safda qadam tashlashi uchun butun kuch, g‘ayratimizni safarbar qilish – ajdodlar oldidagi bizning muqaddas burchimizdir.

Mustaqilligimiz butun o‘zbek xalqiga muborak bo‘lsin. Hurriyatimiz abadiy bo‘lsin!

KO‘ZGU

SAIDAHMAD SIDDIQIYNING bashorati



Shu kunlarda qadimiy va navqiron Samarqand afsonaviy ko‘rinishga kirgan. Ajib taronalar og‘ushida gullarga burkanib, favvoralardan billur shodalar taqib, yangicha qiyofada tovlanayotgan shahar kelinchakdek hammaning ko‘zini quvnatadi. Uning jamoliga boqib, bundan 112 yil muqaddam yozilgan Saidahmadxo‘ja Siddiqiy-Ajziyning “Mir’oti ibrat” dostoni yodga tushadi. Xayoliy yo‘nalishda bitilgan asarda shoir orzusidagi Samarqand ta’rifi fantastik uslubda bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Ammo bugungi kun uchun bu ta’riflar haqqoniy mos tushadi.

Doshdin hama yer imorat o‘lmish,
Bir yangicha shakl-u hay’at o‘lmish.
Binglarcha tramvo, avtomobil,
Har yerda elektro ila qandil.
Favvora-la suv do‘kub Registon
Favvorayi tegrasinda bo‘ston.

Asar yozilgan “tarix”ga qaraydigan bo‘lsak 1332-yil, ya’ni 1912-milodiy yilga to‘g‘ri keladi. O‘sha vaqtda Toshkentga endigina tramvay kirib kelgandi. Ammo Samarqandga bunday texnikaning borishi haqida faqat xayol qilish mumkin edi. Oradan 100 yildan ziyod vaqt o‘tibgina bu ko‘hna shaharda Siddiqiy orzusidagi tramvay paydo bo‘ldi. O‘sha davr uchun utopik ko‘ringan minglarcha avtomobillar ham, har yonni yorituvchi qandillar ham bugun hayratlanarli yangilik emas. Dostondagi Samarqand ta’rifi bugungi festivallarni tomosha qilib yurgan odam nigohi bilan aytilayotgandek taassurot qoldiradi.

Shoirlarni bashoratgo‘y, deyishadi. Masalan, Navoiy o‘z davrida oynayi jahon – televizor, o‘zi yurar taxt – zamonaviy liftlar haqida yozganligi ma’lum. Saidahmad Siddiqiy ham bu borada avliyolardan qolishmaydi. U bugungi sensorli telefonlarimiz, videoqo‘ng‘iroqlar haqida bashorat qilganiga nima deysiz.

Oyinayi barq ila tilufon,
So‘ylashmaqa har kimi bir uchun.
Manzur edi ko‘zguda muxotab
Har kimi tilufona aylasa gab.

Asar yozilgan paytda Aleksandr Bell telefonni ixtiro qilgan bo‘lsa-da, hali sensorli telefonlar haqida ixtirochi texniklar ham biror tayinli gap aytolmasdi. Videoqo‘ng‘iroqlarning paydo bo‘lishi uchun esa yana necha o‘n yillar kerak bo‘ldi.

Shuni ham aytish kerakki, “Mir’oti ibrat”dan maqsad kelajak haqida bashorat qilish emas, balki turli manzillarning ta’rif-u tavsiflarini keltirish orqali bugungi kun uchun ibrat olish, tegishli xulosalar chiqarish edi. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud “Turk shoiri Ajziy” maqolasida Siddiqiy-Ajziy haqida shunday yozgan edi: “Shoirimiz u katta inqilobgacha cho‘zilg‘on oxirgi asrning yetishdirgan kishisidir. Shu davrda yetishgan mutafakkirlarimiz kabi u-da tamomila istilo siyosatiga dushman bir ruhga molikdir. Ajziy ijtimoiy hayotimizning har sahfasiga juda chuqur tushungan va uning islohi uchun faol bir suratda cholishkanlardandir”.

Darhaqiqat, shunday. Isloh uchun ibrat zarur, yomonni ko‘rsatib, yaxshilik sari yuzlanmoq lozim edi. Ajib bir hikoya uslubida yozilgan doston so‘ngida shoir shunday xulosa qiladi:

Do‘rt ish bana bundan erdi maqsud,
Bundan o‘la xalq baxti mas’ud.
Ilmi a’lo olmoq va fununni
Davlatni, lisoni va zakunni.
Har qavm bulardan o‘ldi mahrum,
Istiqboli holidin o‘lar shum.

Bu borada ham shoirning bashorati to‘g‘ri chiqdi. Ilmi sayozlashgan, davlat tuzumi izdan chiqqan, tili va qonuni to‘g‘ri ishlamagan millat qullikka mahkum bo‘ldi, istiqboli xavf ostida qoldi. Jannatmonand shahar orzusi ijobati yana 100 yillar orqaga surilib ketdi...

Bir so‘z bilan aytganda, ma’rifatparvar jadid bobomiz tomonidan yaratilgan ushbu asarni o‘qib, bugungi kun uchun ham foydali ibratlar olish mumkin.

Bekzod IBRAGIMOV,
tadqiqotchi



SABOT SINOVI

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu yirik roman uchun qunt bilan izlanib, materiallar yig‘ib, kutubxonalar, arxivlarda ishlab, olti-yetti yil mashaqqat chekib, asar bunyod qilib, zamonlarning eng azob-uqubatlarga to‘la yuklarini yelkasiga ortgan muallifning bardosh-matonati, yuragining mushfiq mehribon quvvatiga lol qolib tasanno aytmay ilojing yo‘q.

Gap zamondoshimiz, shoira, jamoatchi, jurnalist Sharifa Salimovaning “Qabohat saltanati yoxud qor qo‘ynida lolalar” deb atalgan she’riy asari ustida boryapti. U asarini “she’riy roman” deb janrini aniq belgilagan. Muallif XX asrning 20–30-yillarida siyosiy zulmlar qurboni bo‘lgan bir qancha xotin-qizlarning qismati va insoniy siymolarini yoritishni o‘z oldiga adabiy-badiiy maqsad qilib qo‘ygan. Ha, shoiraning yuragi qanday chidadi ekan zamonlar kechib bu mash’um voqealarni qayta tiriltirishga?!

Muallifga bunda kuch-quvvat, bardosh matonat-chidam bergan hodisa – bu uning zulm qurbonlariga o‘zini singilday, jigarday, qondosh-qarindoshday tutishi va his qilishidir. U nohaq jabrdiydalarning holi-ahvoli, kechinmalari, muhabbat-sadoqatlarini teran tushunadi, dard-alamlarini o‘z jonida sezadi. Ularga eng og‘ir damlarda iroda-matonat qayerdan kelganligini uqadi, anglaydi. Asar shunday milliy negizlardan kelib chiqayotgan noyob darddoshlikdan tug‘ilgan. Bunday asarni sovuq qalam, sovuq nigoh, sovuq yurak bilan aslo yozib bo‘lmaydi. Men xalqi, farzandlari ayovsiz nobud bo‘lganda Nodira qanday ahvolga tushganligi, otashin Hamid Olimjon avtohalokatga uchraganda, qondosh aka-ukalari siyosiy qirg‘inga giriftor bo‘lganda o‘ktam shoira Zulfiya nimalarni boshidan kechirganligi, bularga chidash uchun qanday kuch topganligini ko‘z o‘ngimga keltirdim. Haqiqatan, ayollar insoniyatning, tamomila tabiatning nozik uzilmas rishtalaridan bino bo‘lgan noyob qatlamlaridir. Ular boshdan oyoq mehr-oqibat, muhabbat, munislik kalavalarini o‘z jonlarida saqlab yuradilar. Sharifa Salimova ayol siyosiy qurbonlar haqidagi yozganlarida ayolga tabiat tomonidan mo‘l-ko‘l ato etilgan shu mislsiz ne’matlarni shoirona tahqiq qilib boradi.

Asar fasllarga bo‘lingan. U uch qism, o‘n uch fasldan iborat. Fasllarning har birida siyosiy mustabid zulm qurbonlari – Xayrinisa Majidxonova, Maryam Sultonmurodova, Sobira Xoldorova, Tojixon Shodiyeva singari o‘zbekning o‘sha davrdagi peshqadam ayollarning taqdiri – boshlariga tushgan mislsiz azob ko‘rgiliklari yoritilgan. Nisbatan XX asrning 70-yillaridan keyin xalqimiz o‘zining bu kabi farzandlarini tanidi. Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov kabi ozodlik uchun jon kuydirgan yo‘lboshchilarining qutlug‘ xonadonlari vayronalarga aylantirilganligini es-es bildi. Sherali Turdiyev, Naim Karimov, Sirojiddin Ahmedov va yana qanchadan qancha ulkan tarixchi allomalar yo‘qotilgan izlar izidan borib, haqiqatlarni ochishga intildilar. O‘qib-o‘rganib yuradigan xalqimizning ziyoli vakillari bu unutilmas ishlardan xabardor. Lekin o‘sha zulm haddan oshgan zamonlarda nega bular beayb zindonlarga tashlandi, gulday-gulday xotin-qizlar otildi, nega inson boshdan oyoq himoyasiz, bechora, benavo maxluqqa aylantirildi? Hech kim qiziqqan emas! Hech kim! Millatning asil ozodlikka yetaklagan vakillari otib tashlanavergan, surgunlarda azob chekavergan, barcha insoniy huquqlaridan mahrum, mosuvo bo‘lib qolavergan. Mana endigi zamonlarga kelib Sherali Turdiyevlarning adolatni tiklashga uringan kitoblari o‘qilib, o‘rganilib, istibdodning butun dahshati odamlar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lmoqda. Romanlar yozilmoqda, tadqiqot o‘tkazilmoqda, haqiqat ro‘y-rost ochilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil 19-iyulda qabul qilingan “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori adolatni tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, unda katta miqyosdagi tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

O‘rganish, targ‘ib etish va xotirani abadiylashtirish borasida juda zarur ishlar ustida so‘z borarkan, ijodkorlar, olimlar, san’atkorlar, tadqiqotchilar, jurnalistlar – ijtimoiy jabhalarda ijtimoiy-siyosiy adolatning tiklanishi, qaror topishiga hech qachon befarq qaragan emaslar. Bu ularning ijodiy rejalarida hamisha aktual, urg‘uli o‘rinda turgan. Bu qanchalar muhim ekanligini Sharifa Salimovaning yangi asari ham baralla ko‘rsatib turibdi. To‘qqiz she’riy faslda to‘qqiz nohaq ayblangan ayol qismati. Har bir fasl alohida bir doston kabi o‘qiladi. Fasllar birlashib jam bo‘lib, “o‘ta og‘riq mavzu”ning yaxlit “daryosi” yuzaga chiqadi. Fasllarning ma’yus navolari har satrda: “Uvol! Uvol!” deb faryod chekadi. Uvol bo‘lgan umrlar! Esiz umrlar! Bu yaxlit qayg‘uli daryo “Majidxonova ruhi”, “Maryamxon ruhi”, “Tojixonlar ruhi” degan ulug‘ to‘lqinlarni guldiratib harakatga solib boradi. Muallif yig‘lay-yig‘lay bu o‘lim dostonini tugatdi. Va oxirida zolimning manhus basharasiga tik boqib: “Ey, palid! Qachongacha odam o‘ldirib kun ko‘rasan!” deb, bobosi fitratona “dod” dedi. Va “dod” dostoniga nuqta qo‘ydi. Balki uning she’riy satrlari andak toliqqandir. Kurash maydonlari chetiga chiqib, biror dam nafas rostlaganda o‘zi shunday bo‘ladi.

Ibrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni

MUNOSABAT



BIRLASHGAN O‘ZAR...

Joriy yilning 23-24-avgust kunlari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi. Tashrif jarayonida ikki davlat o‘zaro hamkorligini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan ko‘plab muhim hujjatlar imzolandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining bu galgi davlat tashrifi tarixiy voqea ekanini alohida ta’kidladi.

TESKARI NISBAT

Biz tengilar yaxshi biladiki, bundan roppa-rosa ellik yil burun Yer yuzida 4 milliard kishi yashar edi. Hozir bu ikki karra ko‘payib, naqd 8 milliardga yetdi. Ammo aholi o‘saveradi-yu, hayot uchun zarur resurslar bu sur’at bilan ko‘paymaydi. Shuning uchun endi inson omili o‘rtaga tushadi. Yer – o‘sha-o‘sha, imkoniyat – o‘sha-o‘sha. Shunday bo‘lganidan keyin endi aqlni haddi a’losida o‘stirib, texnika, texnologiyalar, innovatsiyalar asosida kam imkoniyatdan ko‘p mahsulot olish yo‘llarini izlayverishdan boshqa yo‘l yo‘q.

Ammo bu global muammoni hech bir davlat o‘z-o‘zicha, yakka-yolg‘iz holda yecha olmaydi. Yechgan bilan, dunyoda yalpi rivojlanish yuz bermas ekan, masala ochiqligicha qolaveradi.

Xuddi ana shu vazifa barcha davlatlarni bir-biri bilan mustahkam hamkorlikka undaydi. Chunki hayotda hammaning hammaga muhtojligi bor.

MAQOLLARDA YASHIRIN MA’NOLAR

O‘zbek – buyuk xalq. Buni u yaratgan dono maqollar mag‘zini chaqqan har qanday kishi sezadi, his etadi, tan oladi.

Mana bu maqolimiz: “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” tarzida jaranglaydi. Yer yuzida hayotini o‘zaro hamkorlik asosiga qurgan davlatlar qanday gullab-yashnab ketayotganiyu hamma bilan “po‘m” chiqib yurgan davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotda nechog‘li og‘ir mushkulotlar girdobiga o‘ralashib qolganini ochiq ko‘z bilan ko‘rib turibmiz.

Xalq bu g‘oyani ifodalashda shu bilangina cheklanib qolmaydi. Yana: “Yakka otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong‘i chiqmas”, deydi.

HAMKORLIKNING SHARTI

Fikrimizni yana maqol bilan ifodalasak: “Mushuk bekorga oftobga chiqmaydi”. Mazkur maqolni boshqa biri bilan izohlaydigan bo‘lsak: “Sendan – ugina, mendan – bugina”. Buni hozirgi diplomatiya tilida “ikki taraflama o‘zaro manfaatli hamkorlik” deymiz. Ya’ni kim bilandir hamkorlik qilish uchun bir tarafning manfaati yetarli emas. Chunki: “Bor, tovog‘im, kel, tovog‘im!” bo‘lishi shart. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot formulasi shuni taqozo etadi.

HAMKORLIKNING YUQORI DARAJASI

Tashrif doirasida Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi o‘tkazildi. Shuningdek, ikki qardosh davlat o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma ham imzolandi. Bu davlatlararo hamkorlikni eng yuqori darajaga ko‘tarishga muvaffaq bo‘lganimizni anglatadi.

Kelgusi yili O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi nishonlanadi. Ushbu qutlug‘ sanani keng nishonlash maqsadida tadbirlar dasturi va bir yilga mo‘ljallangan Idoralararo muloqot va almashinuvlar rejasi tayyorlanadigan bo‘ldi. Shuningdek, yanagi yilni “O‘zbekiston va Ozarbayjon iqtisodiy kooperatsiyasi yili” deb e’lon qilish va 20 ta ustuvor yo‘nalishni qamrab olgan kompleks dasturni qabul qilishga kelishib olindi.

MA’NAVIY BIRLIK

O‘ttizdan ortiq turkiy xalq orasida aruziy yozma adabiyotga ega bo‘lgani u qadar ko‘p emas. Bu borada o‘zbek va ozarbayjon adabiyoti alohida ajralib turadi. Xalqlarimiz asrlar mobaynida qardosh ikki tilda yaratilgan badiiy asarlarni o‘ziniki kabi o‘qiyvergan.

Alisher Navoiyning ustozi bo‘lmish Pahlavon Muhammad shogirdidan: “Turkiy shoirlardan kimni tan olasan?” deb so‘raydi. Navoiy Lutfiyni aytadi. Shunda ustozi: “Nechuk Said Nasimiy demading?” deydi. Bu savol-javobdan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida ijod qilgan Lutfiy bilan ozarbayjon tilida asarlar bitgan Nasimiyga bir adabiyot vakillari sifatida qaralyapti.

Yoxud fors-tojik tilida birinchi “Xamsa”ni bitgan ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviysiz Navoiy ijodini, Navoiysiz esa Muhammad Fuzuliy ijodini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Yaqin yillarda Nizomiy Ganjaviyning besh dostondan iborat “Xamsa”si atoqli tarjimon, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan aruz vazni bilan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Xuddi shuningdek, professor Ramiz Asqar Navoiy “Xamsa”si dostonlarini o‘z vazni bilan ozarbayjon tiliga o‘girdi. Bular ko‘p asrlik tarixda ilk bor amalga oshirilgan buyuk ijodiy ishlar hisoblanadi.

Bu mulohazalarni bejiz keltirayotganimiz yo‘q. Tashrif kunlari atoqli o‘zbek estrada xonandasi Farrux Zokirovga “Ozarbayjon xalq artisti”, atoqli ozarbayjon estrada qo‘shiqchisi Po‘lat Bulbul o‘g‘liga “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvonlari berilishi ham bizning ma’naviy-madaniy rishtalarimiz bir ekanining yorqin namunasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ozarbayjon bizning muhim strategik hamkorimiz va ittifoqchimizdir. Bizni mushtarak tarixiy ildizlarimiz va ko‘p asrlik do‘stligimiz, yagona din, o‘xshash madaniyat va an’analar bog‘lab turadi. Bularning barchasi har tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”.

O‘SISH NUQTALARI

Muzokaralarda hamkorlikning keng qamrovli kun tartibi muhokama qilinib, istiqbolli “o‘sish nuqtalari” belgilab olindi. Yaqinda bo‘lib o‘tgan biznes forumda umumiy qiymati 2 milliard dollardan ortiq bitim va shartnomalar imzolandi. “Biz hurmatli Ilhom Haydarovich bilan bir fikrdamiz: hamkorlik kelajagi biznesga bog‘liq, ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning ertangi kuni sizlarga bog‘liq”, deya xulosa qildi Shavkat Mirziyoyev biznes forumda.

Biz 2023-yili jon boshiga 2 500 AQSh dollari miqdorida yalpi ichki mahsulot yetishtirdik. Ozarbayjonning bu borada bulturgi ko‘rsatkichi esa 7 155 dollar. Davlatimiz rahbari davlat va jamiyat oldiga 2030-yilga borib yurtimizda bu ko‘rsatkichni 4 000 dollarga yetkazish vazifasini qo‘ygan.

Bu maqsadga ham boshqa davlatlar bilan hamkorliksiz erishib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda, yaqin o‘tmishda jon-jigarlarimiz bo‘lgan qo‘shni va qardosh davlatlarga to‘nimizni ters kiyib yurganimiz, chegaralarga yetti shoda qulf urib, eshiklarni mixlab olganimizni eslab, yoqa ushlaysan kishi. Bugungi oliy darajada do‘stona munosabatlar, diplomatiya sohasida qo‘lga kiritilayotgan olamshumul yutuqlar, shubhasiz, Prezidentimizning siyosiy irodasi va u kishining vatanparvarlik hamda millatsevarlik tuyg‘usi bilan izohlanadi.

Ozarbayjon Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro do‘stona munosabatlardan manfaatdor. O‘zbekiston esa Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan. U amalda bu mintaqadagi barcha davlatlar bilan chegaradosh. Xullas, har taraflama yaqin hamkorlik ikki davlat xalqining birdamligi, rivojlanishi uchun muhimdir.

Sultonmurod OLIM

XALQARO KONGRESS

SAMARQANDDA AHLI ILM ANJUMANI

Barchamiz uchun muqaddas va aziz bo‘lgan O‘zbekiston diyori azal-azaldan olim-u fuzalo, oqin-u shuaro manzil-u makon tutgan mo‘tabar maskan bo‘lgan. Qilichdan o‘tkir zehni, ilmtalab ong-u shuuri bilan yetti iqlimga dong‘i ketgan mutafakkirlarining ma’rifiy xazinasidan esa dunyo ziyolilari hamon bahramand. Boshqalar mudragan paytda uyg‘onib, jahon tamadduniga chiroq tutgan ajdodlarimiz merosini o‘rganish, asrab-ardoqlash siz-u bizga berilgan tabarruk burch. 23–26-avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida o‘tkazilgan xalqaro kongress ham ana shu burchimizni ado etish sari tashlangan navbatdagi qadam bo‘ldi.



O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati hamkorligida “Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Uyg‘onish asosi” mavzusida VIII Xalqaro kongress bo‘lib o‘tdi. Ta’kidlash joizki, bu kongress bevosita O‘zbekiston Respublikasi hukumati ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Kinematografiya agentligi singari mahalliy, IRSIKA, TURKSOY kabi xorijiy tashkilotlar hamkorligida tashkil etildi. Tadbirlar “ERIELL Group” neft-servis kompaniyasining moliyaviy va tashkiliy homiyligida o‘tkazildi.

Ushbu loyiha O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyatining yirik loyihalaridan biri bo‘lib, ayrim sabablarga ko‘ra, ayni paytda xorijdagi muzeylar, kutubxonalar, turli kolleksiyalar va boshqa muassasalarda saqlanayotgan o‘zbek xalqining madaniy yodgorliklari va moddiy buyumlari, qadimiy qo‘lyozmalar, nodir ashyolar haqidagi ma’lumotlarni jamlash, ularning nusxalarini olish va xalqimizga yetkazishga qaratilgan.

BIRINCHI KUN

Mazkur nufuzli kongressda qatnashish maqsadida dunyoning turli davlatlaridan kelgan ilm ahli 23-avgust kuni Islom sivilizatsiyasi markazida yig‘ildi. U yerda markazning asosiy maqsadlari, ayni kunlarda ham davom etayotgan qurilish ishlari haqida hikoya qiluvchi hujjatli film namoyish etildi. Shuningdek, “O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi” loyihasi taqdimoti bo‘ldi.

Tushdan keyin Samarqandga yo‘l olgan ishtirokchilar Xartang qishlog‘ida joylashgan, hozirda o‘zgacha mahobat kasb etayotgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi hamda Hadis ilmi maktabi bilan tanishdilar. Shundan so‘ng VIII Xalqaro Kongress ochilishiga bag‘ishlangan qabul marosimi o‘tkazildi.

IKKINCHI KUN

Kongressning ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kongress ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi o‘qib eshittirildi. “Biz, hamfikrlaringiz sifatida Yangi O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans” deb nom olayotgan barcha jabhalarda, jumladan, ta’lim, fan, madaniyat va ma’rifatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz. Yangi O‘zbekiston ilm-fan va ta’lim markazlaridan biri sifatida tobora jahon miqyosida shuhrat qozonmoqda. Yuksak ma’naviyat, ta’lim-tarbiya, shuningdek, mamlakat madaniy merosini o‘rganish va asrab-avaylash davlatning barqaror rivojlanishi va farovon kelajak barpo etishining garovidir, degan fikringizga to‘liq qo‘shilamiz”, deyiladi murojaatda.

Rasmiylarning qutlov so‘zlaridan keyin yalpi yig‘ilish boshlandi. Unda Islom sivilizatsiyasi markazi va xorijiy dizaynerlar o‘z loyihalari va konsepsiyalarini namoyish etdi. Muzeylar va Imom Buxoriy markazi ko‘rgazmalarining konsepsiyalari ilmiy xodimlar tomonidan taqdim etildi.

Yalpi yig‘ilish yakunlangach, ekspertlar yettita sho‘baga bo‘linib, Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy muzeylarining ekspozitsiyalari bo‘yicha taqdim qilingan loyihalarni muhokama qilishni boshladilar. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan tadqiqotchilar, fan doktorlari, ilmiy muassasa rahbarlari tahliliy ma’ruzalar bilan chiqish qildi. Shuningdek, AQSh va Rossiyadan kelgan mutaxassislar ishtirokida Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy muzeyi uchun zamonaviy texnologiyalarning loyihalari taqdim qilindi.

Bundan tashqari, “Yangi Renessans: Madaniy merosni saqlashda kino va medianing o‘rni” mavzusida TURKSOY xalqaro forumi o‘tkazildi. Unda turkiy tilli mamlakatlarning kino sanoati vakillari ishtirokida “Kino – meros himoyachisi: madaniy loyihalar va tashabbuslar taqdimoti”, “Global media hamkorlik: merosni asrash bo‘yicha madaniyatlararo loyihalar” kabi tadbirlar o‘tkazildi. Shuningdek, ishtirokchilar Islom sivilizatsiyasi markazi multimedia bloki uchun tayyorlangan videoroliklar turkumi taqdimoti, “Baqtriya tarixi”, “O‘zbekiston arxeologik marvaridlari”, “Klavixo”, “Xudoybergan Devonov va nemis mennonitlari”, “Muxtor Avezov” loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Bu yilgi Kongressda dunyoning 35 davlatidan 300 ga yaqin olim va ekspertlar, jumladan, 180 nafar xorijlik, 110 nafar o‘zbekistonlik olimlar ishtirok etdi. Ular orasida 15 nafar akademik, 103 nafar fan doktori, 40 nafar professor, 54 nafar kutubxona va muzey rahbarlari, fanlar akademiyalari rahbar hamda mutasaddilari, oliy o‘quv yurtlari rektorlari, nashriyot direktorlari, yirik xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdi. Kongress davomida 7 ta sho‘ba yig‘ilishi, 1 ta forum, 4 ta yalpi majlis, 13 ta ilmiy panel yig‘ilishi, 4 ta eksklyuziv ko‘rgazma tashkil etildi, 300 dan ortiq ilmiy ma’ruzalar tinglandi.

“Kino orqali aniq bir davr yoki madaniy tabiatdagi voqealarni ko‘rsatish, ularning ahamiyatini tushuntirish mumkin, – dedi TURKSOY xalqaro forumi bosh kotibi Sulton Rayev. – Madaniy merosga oid kinofilmlar tarixiy voqealar va madaniy an’analarning eng to‘g‘ri, real hamda ijodiy ko‘rinishini ta’minlaydi”.

UCHINCHI KUN

Sho‘ba yig‘ilishlari qizg‘in davom etdi. Kunning birinchi qismida ishtirokchilar Islom sivilizatsiyasi markazi multimedia bloki uchun tayyorlangan videoroliklar turkum loyihalari, shuningdek, “O‘zbekiston madaniy merosi” turkumiga oid hujjatli filmlar taqdimotida qatnashdi.

Kunning ikkinchi qismida TURKSOY forumining asosiy OAV faoliyatiga bag‘ishlangan ma’ruzalari tinglandi. Turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda OAVning o‘rni, uning madaniy merosga o‘zaro ta’siri, kontentni birgalikda ishlab chiqarishning qiyinchiliklari va imkoniyatlari, turizm va milliy brendingni rivojlantirishda OAVning roli, turkiy dunyo mamlakatlari kino va OAV uchun yagona platforma yaratish masalalari kabi mavzular muhokama qilindi.

Kun yakunida turkiy dunyo davlatlarining yagona kino-media platformasini yaratish to‘g‘risidagi memorandum imzolandi hamda TURKSOY forumining “Yangi uyg‘onish davri: kino va OAV madaniy merosni qo‘llab-quvvatlash yo‘lida” rezolyutsiyasi qabul qilindi va yig‘ilish bayonnomasi tuzildi.

ASOSIY PANEL MAJLISI

“O‘zbekiston Qur’onlari” loyihasi taqdimotida Islom sivilizatsiyasi markazi direktori, O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati boshqaruvi raisi Firdavs Abduxoliqov hamda “Muyeller&-Schindler” nashriyoti marketing va rivojlanish bo‘yicha vitse-prezidenti Aleksandr Vilgelm “114 Qur’on” loyihasi haqida so‘z yuritdi. Qayd etilishicha, mazkur loyihada VII-VIII asrlardan boshlab XIX-XX asrlargacha Hindistondan Turkiyagacha, Osiyo mamlakatlarida, Afrika davlatlarida ko‘chirilgan va dunyoning turli mintaqalarida, mashhur muzey va kolleksiyalarda saqlanayotgan 114 dona noyob Qur’on nusxalaridan namuna olinib, to‘plangan. Yig‘ilishda “O‘zbekxonning muqaddas Qur’oni. Qur’onning yangi o‘zbekcha tarjimasi”, “O‘zbekiston bilan bog‘liq noyob Qur’on qo‘lyozmalari” to‘g‘risida ham suhbat bo‘ldi. Bundan tashqari, “Allohning 99 ismi” kitob-albomi taqdimoti o‘tkazildi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy xodimi Rustam Jabborov loyihani amalga oshirishda yurtimiz olimlari bilan birga xorijdagi hamkorlar, tarixchilar, muzey xodimlari ishtiroki muhimligini ta’kidladi. Bu galgi 10 jildni tayyorlashda ham ularning hissasi katta ekanligi va Buyuk Britaniya, Gretsiya, Hindiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va boshqa davlatlardagi yurtimiz tarixiy merosiga oid noyob qo‘lyozmalar, hujjatlar, muzey eksponatlari, tarixiy asarlar o‘rganilgani haqida gapirdi. Bu noyob ma’lumotlar, albatta, mamlakatimiz tarixi, ajdodlarimiz ma’naviy merosini o‘rganish va tadqiq etishga xizmat qiladi.

Ma’ruzalarni tinglash davomida Tekirdog‘ universiteti professori Xalit Erenning Turkiyada saqlanayotgan O‘zbekistonga oid Qur’on qo‘lyozmalari hamda “Al-Furqon” fondi rahbari Sali Shahsuvarining buyuk vatandoshimiz Qaffol Shoshiyga doir nodir qo‘lyozmalar haqidagi fikrlari alohida e’tibor qozondi. Shuningdek, Kipr instituti ilmiy xodimi Megia Nilesh Desanning Axsikent yodgorligi bo‘ylab 3D sayohatni tashkil qilish, italiyalik olim Franchesko Fiorentinoning temuriylar san’atining safaviylar davri gilamlariga ta’siri, Rossiyaning “Sila sveta” kompaniyasining Imom Buxoriy innovatsion muzeyi uchun taklif etgan “Vaqt kapsulasi”, Qozog‘iston Milliy kutubxonasi xodimi Galshat Abikovaning Alisher Navoiyning qo‘lyozma va toshbosma asarlari, Hindistondagi Ibn Sino akademiyasi direktori doktor Sayid Zillur Rahmonning Ibn Sino yaratgan yurak dorisini o‘rganish haqidagi yangiliklar anjuman qatnashchilarida katta qiziqish uyg‘otdi.

TURKSOY tashkiloti yig‘ilish o‘tkazgan sho‘bada esa “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” shiori ostida “Hamkorlikdagi tarixiy kinoloyihalarda din va ma’rifat mavzusi” xalqaro kinoforumi o‘tkazildi va istiqboldagi rejalar muhokama etildi. Unda O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi va O‘zbekiston Kinematografiya agentligi hamkorligidagi “Tirik tarix” loyihasi hamda uning amalga oshirilishi muhokama qilindi. Kino-mediaforum yakunida Turk dunyosi davlatlarining yagona kino-media platformasini yaratish to‘g‘risida Memorandum imzolandi.

Anjuman davomida TURKSOY media va kino forumi, “Buyuk Baqtriya devori” ilmiy sensatsiyasi, “Dunyoning faksimil nashrlari durdonalari” noyob ko‘rgazma maydoni va “Turkiy xalqlar adabiyotining 100 jilddagi durdonalari”, “Aql-idrokdagi raqobatchilar, 1000 yil: Beruniy va Ibn Sino o‘z Renessansini qanday yaratgan?” kitobi taqdimoti, “Buyuk temir yo‘l” loyihasi va boshqa bir qator ilmiy kashfiyotlar xalqaro jamoatlik hukmiga havola etildi. Ayniqsa, “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlari” an’anaviy (71–80-jildlar) turkumining 10 ta yangi jildi taqdimoti ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Ushbu muhim tashabbuslar Islom sivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlik memorandumlarini imzolash orqali mustahkamlandi. Hamkorlar orasida TURKSOY tashkiloti, IRSIKA, Turkiya Fanlar akademiyasi, Turkiy davlatlar akademiyasi, “Al-Furqon” Islom fondi, Turkiyaning Islom va san’at muzeyi, Eron dinlar universiteti, Hindiston Ibn Batuta xalqaro madaniyatlararo tadqiqotlar markazi, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari instituti va bir qator noshirlik uylari bor.

“Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Uyg‘onish poydevori” VIII Xalqaro Kongressi yakunida O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi qo‘shma loyihalari bo‘yicha yo‘l xaritasi tasdiqlandi. Kongress oldidan OAV uchun tashkil etilgan matbuot anjumanida Islom sivilizatsiyasi markazi direktori, O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati boshqaruvi raisi Firdavs Abduxoliqov O‘zbekiston Islom sivilizatsiya markazi Xalqaro ekspertlar kengashini tuzish bo‘yicha taklif bildirgan edi. Kongress yakunida ushbu taklif ishtirokchilar tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Islom sivilizatsiya markazi Xalqaro ekspertlar kengashi tarkibi tasdiqlandi.

“OLTIN KITOB” XALQARO MUKOFOTI

Kongressda faol ishtirok etgan TURKSOY tashkiloti Bosh kotibi Sulton Rayev, Nomiq Kamol nomidagi Tekirdog‘ universiteti professori Xalit Eren, “Al-Furqon” Islom merosi jamg‘armasi boshqaruvi direktori Sali Shahsivari, Rossiya etnografik muzeyining yetakchi ilmiy xodimi Tatyana Yemelyanenko, Kembrij universiteti tadqiqotlari markazi direktori Firyuza Melvill, Turk dunyosi Yozuvchilar uyushmasi raisi Ulug‘bek Esdauletov, Dubaydagi “Hidoyat” markazi direktori Arif Nasr Muhamed Ahmed Muhamed, Islom olami uyushmasi direktori o‘rinbosari Saloh Shokir, Turkiya Prezidenti huzuridagi madaniyat va san’at kengashi raisi Iskender Pala, Turkiyadagi “G‘oya” fondi rahbari o‘rinbosari Mehmet Akshit kabi bir guruh chet ellik qatnashchilar WOSCUning “Oltin kitob” xalqaro mukofoti bilan taqdirlandi.

Kongress yakunida dunyoning 300 ga yaqin olimlari an’anaviy tarzda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaatnoma yo‘llashdi. Murojaatnomani Temuriylar uyushmasi prezidenti Friderik Bressan xonim o‘qib eshittirdi.

Shuningdek, “Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Uyg‘onish asosi” VIII Xalqaro Kongressining Samarqand Deklaratsiyasi qabul qilindi. Hujjatni “Al-Furqon” islom jamg‘armasi direktori Doktor Sali Shahsivari o‘qib eshittirdi.

Unda jumladan quyidagi so‘zlar o‘rin olgan: *“Biz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish bo‘yicha tashabbuslarini ahamiyatli deb e’tirof etamiz. Ushbu madaniy-gumanistik megaloyiha Sharqning buyuk olimlari va mutafakkirlarining jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi, jumladan, musulmon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan munosib hissasiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga kuchli turtki beradi. Biz dunyodagi vaziyatdan tashvishda ekanligimizni bildirmoqdamiz va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT minbaridan turib bayon etgan islom dinining haqiqiy insonparvarlik va ma’rifatparvarlik mohiyati haqidagi g‘oyalari alohida e’tiborga loyiq, deb hisoblaymiz. Mazkur g‘oyalarning “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida amalga oshirilishi tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biz barcha olimlar va tadqiqotchilarni, madaniyat va jamoatchilik vakillarini xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar va istiqbollarni ochib beradigan ushbu keng qamrovli loyiha atrofida birlashishga da’vat etamiz”.*

Anjuman qatnashchilari O‘zbekistonda XIII marotaba o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimida ham ishtirok etdi.

Bu kabi tadbirlar mamlakatimiz ilm-fani, adabiyoti, san’ati, moddiy va ma’naviy hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarga munosib hissa qo‘shadi, degan umiddamiz.

Shahriyor IBRAGIMOV

Abdumannon MAMATOV olgan surat.

O‘zbekning boshiga qo‘nadi humo, Dunyo sharaflaydi O‘zbekistonni!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yaqinda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz uch yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, adabiyot, madaniyat, san’at sohalari va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, bir qator ijodkor ziyolilar nufuzli davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Taqdirlangan barcha ijodkorlarga mukofotlar muborak bo‘lsin!

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan:

Ismoil Mahmud – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir, Farg‘ona viloyati.

“Do‘stlik” ordeni bilan:

Ne’mat Arslon – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, yozuvchi, Toshkent viloyati;

Bobur Bobomurod – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir;

Qurbon Muhammadrizo – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, yozuvchi, Xorazm viloyati;

Orazbay Satbayev – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir, Qoraqalpog‘iston Respublikasi;

Nafas Shodmon – Qarshi davlat universitetining o‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi mudiri, Qashqadaryo viloyati.

“Shuhrat” medali bilan:

Abdunabi Boyqo‘zi – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir;

Axtamqul Karim – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir;


Hakimjon Karimov – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, adabiyotshunos;

Turob Niyoz – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir;

Ibodat Rajabova – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira, Buxoro viloyati;

Vafo Fayzulloh – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir;

Zilola Xo‘janiyozova – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira.



Vafo FAYZULLOH

KO‘CHALARGA SUV SEPDI YOMG‘IR

Ko‘chalarga suv sepdi yomg‘ir,
Yuragimni etdi ozoda.
Yashnab ketdi quvragan qadr,
Ko‘ngil mukka tushgan, duoda:

Orzularim uyg‘ot qaytadan,
Karamingday ko‘ksimni keng qil!
Qulog‘ingga bir sir aytaman:
Dunyo qirmiz tanho atirgul.

Yillar, asrlardan kutilgan,
Sevgi bilan yugurik qoni,
Mardona bir jonga tutilgay,
Har narsadan ortiq iymoni.

Balki mendir o‘sha sohibbaxt,
Balki sendir shu’lali qalbi.
Qurilgancha intizordir taxt,
Idrokini qo‘llagan Rabbi!

Kim bo‘lsa ham saodatda shoh,
Ne bo‘lsa ham mujdadir yomg‘ir!
Bu qismatsiz yashamoq gunoh...
Bu qismatga chidash xo‘b og‘ir...



Axtamqul KARIM

* * *

Keldim, meni qutlar tog‘-u toshlarim,
Yillar peshonamga g‘ildirak surdi.
Dardimni uqmagan qarindoshlarim
Dunyo ayvonida dardsiz yugurdi.

Osmon osilibdi borliqni quchib,
Cho‘qqilar kaftida titraydi najot.
O‘tdim so‘qmoqlardan burgutdek uchib,
Dilni sog‘inchzorga bog‘ladi hayot.

Onam olib ketdi sarg‘aygan kuzni,
Qog‘ozlarda g‘amgin baytlarim undi.
Otam quvlayapti qaltirab yuzni,
So‘nggi tanholikka sirdosh tutindi.

Quvnoq bolalikning totli damlari
Meni xotiralar domiga otdi.
Oqizgan kulchamning shirin ta’mlari
Topgan halovatim zavqin yo‘qotdi.

Hanuz balandlarda yuribman bepo,
Shamol uvlayapti qayrab izimdan.
Yulduzlar yo‘limda yog‘ilgan duo,
O‘zib ketyapman so‘zsiz o‘zimdan.

Qog‘ozga to‘kaman tunning rangini,
Oymomo o‘ylovdan ozib ketadi.
Qalamning she’r so‘rab qilgan jangini
Falak manglayimga yozib ketadi!



Bobur BOBOMUROD

TEMURBEKLAR

Temurbeklar maktabi o‘quvchilariga

Qanotlari qayrilmay,
Sor bo‘lsin, temurbeklar!
Qatorlari ayrilmay,
Bor bo‘lsin, temurbeklar!

Dushman ko‘rganda sizni
Qadolmasin tik ko‘zni.
Sochlari, ilib tuzni –
Qor bo‘lsin, temurbeklar!

Mardlik g‘ururdan nishon,
Deysiz: “Yurt, menga ishon!”
Ko‘kragingiz to‘la shon,
Or bo‘lsin, temurbeklar!

Bobolardan meros shahd,
Vatan mehri – oliy ahd.
Sizga omad, sizga baxt
Yor bo‘lsin, temurbeklar!

Qanotlari qayrilmay,
Sor bo‘lsin, temurbeklar!
Qatorlari ayrilmay,
Bor bo‘lsin, temurbeklar!



Zilola XO‘JANIYOZOVA

VATAN O‘G‘LONLARIGA

Ey Turon farzandi, muzaffar o‘g‘lon,
Vatanning eltuzar mard posboni bo‘l.
Yengilmas shahdingni ko‘rsin bor jahon,
Yurt tinchligin asra, zo‘r qalqoni bo‘l.

Deydilarki, ot izini toy bosar,
Kun kelib toylarki, tulpor bo‘lajak.
Erman degan mardlar bo‘y ko‘rsatsa gar,
Qoraniyat yovlar bedor bo‘lajak.

Jaloliddin, Kubro, Shiroqlar qaytar,
Zulmatda qolmaydi erk istagan xalq.
Adolat yalovin balandroq ko‘tar,
O‘ziga bek bo‘lgan millat bo‘lib qalq.

Dushmaningdan qo‘rqma, munofiqdan qo‘rq,
O‘zagingdan ungan xoinlar yomon.
Boshing birikmasa, tor kelganda bo‘rk,
Baayni, jahannam bo‘lar to‘rt tomon.

Oqillarda yo‘riq bo‘lmasa azal,
Johillarning bilki, tug‘adi kuni.
Gumroh-u bemaslak eldan gil afzal,
Muqaddas zaminning tutadi xuni.

Ko‘ksimizga ilsak yurt yalovini,
Biz butun bir tanga aylanajakmiz.
Doim qo‘llagaydir ajdodlar ruhi,
Bil, buyuk Vatanga aylanajakmiz.

Qachonki, jonimiz aylasak fido,
Yuksalar millatning g‘ururi, shoni.
O‘zbekning boshiga qo‘nadi humo,
Dunyo sharaflaydi O‘zbekistonni!




Ibodat RAJABOVA

* * *

Ota, Sizni Shiroq so‘radi.
Aylanadan aylandi ko‘prik.
To‘marisning va’zlarin tinglab,
Bog‘shamshodlar o‘saverdi tik…
Bobom otin zoti nurmidi,
Yaylovlardan tiksam go‘shanga,
Alp Teginning shumligin qarang,
Zafarlardan zarb etmish tanga.
Ota, qishloq bir yog‘ga botdi,
Ukam G‘irot mindi. Ko‘pkari!
Bo‘tako‘zli qirlar ortidan,
Qarsak chalib turdi hur, pari.
Onam paxta sitib, oy to‘qir
Ignasining dumi avreshim.
O‘ymog‘idan to‘qilgan terni
Shundoq olib, yelkamga ekdim.
Endi anbar sochim bog‘chayla,
She’rlarimga aytsam, bo‘ldi tok.
Sahar ko‘nglim ichin aylansam,
Tashqaridan ichi yorug‘roq…

Ota, Sizni Shiroq so‘radi…



Turob NIYOZ

G‘ALLAOROL SHAMOLI

Tong otib ochiladi qishlog‘imning jamoli,
O‘sha onda boshlanar G‘allaorol shamoli.

Bir zum bo‘lsin tinmaydi uning “g‘ir-g‘ir” ovozi,
Quyosh botdi deguncha taqqa to‘xtar parvozi.

Men uni sog‘inaman shaharda yurgan chog‘lar,
Ko‘z oldimga keladi ko‘kni ko‘targan tog‘lar.

Arg‘umoqday yugurib yurganday tuyuladi,
Men borsam chopib kelar – naqadar suyunadi.

Bag‘riga olar meni eng yaqin odam kabi,
Sochlarimni silaydi mehribon onam kabi.



Abdunabi BOYQO‘ZI

TO‘RG‘AY

Cho‘lponga

Sen
Quyoshni sevarding, To‘rg‘ay,
Hayot lazzatidan ortiqroq.
Sen
Tongni sevarding, hayiqmay
Parvoz etding yuksak va quvnoq.

Nurga tashna edi ko‘zlaring,
Otilding, jahd bilan ziyoga.
Ufqlardan so‘qmoq izlading,
Bo‘zlading sen ko‘m-ko‘k havoda.

Parchalanib ketdi orzular – sarob,
Nogahon qulading qoyalar aro.
Sovuq devorlarni siypalab yog‘du
Dilgir entikadi – motamsaro.

To‘rg‘ayjon, sen o‘lding quyoshni ichib,
Qora qarg‘alarning ko‘nglini xushlab.
Endi... Qo‘shiqlaring boradir uchib,
Burgutlarni kurashga boshlab!

IFTIXOR



MUKOFOT BU – MAS'ULIYAT VA ISHONCH

Ochig'ini aytaman, men bajarayotgan vazifam, qilayotgan ishim uchun bunchalik e'tibor beriladi, yuksak qadrlanadi, deb xayolimga ham keltirmagan edim. Kuni kecha... Kutmaganimda... Oila va xotin-qizlar qo'mitasidan telefon qilishib, "Opa, tabriklaymiz! "Do'stlik" ordeniga sazovor bo'ldingiz", deyishgach avval ishonqiramadim. Keyin hayron bo'ldim. Men bor yo'g'i el qatori ishlab yurgan odam bo'lsam... Biroz o'tib, tuman hokimi ham telefon qilib tabrikladi.

Shundan keyingina ijtimoiy tarmoqlarga kirib ko'rdim. Rostdan ham Prezidentimiz farmoniga ko'ra mukofotlanganlar orasida bor ekanman. Albatta, bunday paytda odamning ko'z oldidan ko'p narsalar o'tadi. Xushbaxtlik, hayajon...

Men hech o'zim qilayotgan ishimdan qoniqmaganman. Bundanam yaxshiroq ishlashim, ko'proq natijaga erishishim mumkin edik-u, deb tinimsiz o'zimni qiynayveraman. Shuning uchun shogirdlarim va qo'l ostimdagi xodimlarga nisbatan juda talabchanman.

Taqdirlanganimni bilgach, Muhtaram Prezidentimiz shunday yuksak mukofotga loyiq ko'rgani, arzimas xizmatimizga katta e'tibor ko'rsatgani uchun juda minnatdor bo'ldim. To'g'risini aytsam, bu mukofotni menga berilgan qarz deb qabul qildim. Demak, men bundan-da ko'proq ishlashim kerak. Yanada ko'proq harakat qilishim zarur. Endi shu mukofotga munosib bo'lishim shart. Mukofot bu – ishonch! Endi ana shu ishonchni oqlash darkor. Elim uchun, xalqim uchun, onalarimiz, opa-singillarimiz uchun yanayam ko'proq qayg'urishim, jonimni tikib ishlashim kerak, degan o'ylar o'tdi yuragimdan.

Qoraqalpog'istondagi milliondan ziyod xotin-qizga javobgarlik, ularning tinchligi-xotirjamligi, baxtiga mas'uliyat zimmamda turibdi. Butun qoraqalpoq ayollarining hayotiga daxldorligim hissi kun-u tun meni tark etmaydi.

Shu kunga qadar qirq to'rt ming nafar xotin-qizni ish bilan ta'minlashga erishdik. To'qqiz ming uch nafarini kasb-hunarga, tadbirkorlikka o'qitdik. 1700 dan oshiq ayolga umumiy miqdori 10 milliard so'mdan ortiq subsidiyalar berildi. Salkam 3 mingdan ziyod xotin-qizning tadbirkorlik loyihalariga 57 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi. 2933 nafar xotin-qiz davlat ro'yxatidan o'tib, o'zining tadbirkorlik subyektini ochdi. Joriy yilning o'zida 23 ta mahallada xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatlik markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. 2021-yilda joriy qilingan "Ayollar daftari"ga kiritilgan 57 ming ayolning mezonlarga muvofiq 63 foiziga amaliy yordam ko'rsatildi. 1120 nafar xotin-qizning salomatligi nazoratga olinib, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. 120 nafar ayolga jarrohlik amaliyoti o'tkazilishida moddiy yordam ko'rsatildi. Mana shunday ezgu ishlarning zamirida, albatta, davlatimiz rahbarining odilona siyosati, biz ayollarga ko'rsatayotgan yuksak e'tibori turibdi.

Men mas'uliyatli vazifada mehnat qilayotganimdan hamisha iftixor tuyaman. Ayoli e'zozlangan yurt obod bo'lishiga chin dildan ishonaman va aslo bu yo'ldagi xizmatdan charchamayman.

Maryam AHMEDOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi o'rinbosari,
Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi,
"Do'stlik" ordeni sohibasi

MULOHAZA

"HAR NE ISTARSEN..."

Kunlarimiz xushxabarlar bilan boshlanadi. Ne-ne mamlakatlar vakillari qay bir yo'nalishda O'zbekiston tajribasini o'rganish uchun poytaxtimizda o'tadigan nufuzli anjumanlarga yig'iladi. Albatta, o'zimizni o'zimizga chiroyli ko'rsatib, qalbimizda ajib bir g'urur uyg'otayotgan o'zgarishlar zamonamizning adolatli siyosati, inson omilini kuchaytirish, qadrini yuksaltirish uchun yaratilayotgan sharoitlar bilan bog'liqligini yaxshi bilamiz. Lekin shu imkoniyatlardan hamma ham o'zini tiklash, jamiyatda o'rnini topish uchun foydalanyaptimi? Afsuski, bu savol bilan yuzma-yuz kelganimizda har doim ham ko'nglimiz to'ladigan javob topilavermaydi.

BIR SHANBADA

Odatim bo'yicha, quyosh ko'tarilmasdan eshikellarni saranjomlashga chiqdim. Kiraverishdagi o'rindiqda urinib qolgan chakmonining qalpog'ini ko'zigacha bostirib, bukchayib o'tirgan yigit diqqatimni tortdi. Bir necha bor kirib-chiqar ekanman, uning shu holatda o'tiraverganiga ajablandim. "Kimsiz, nega bunday o'tiribsiz?" deya so'rashga og'iz juftlagandim, yigitning o'zi:

– Xola, bir narsa so'rasam noto'g'ri tushunmaysizmi? – deb qoldi.

– To'g'ri gap bo'lsa, nega noto'g'ri tushunaman, so'rang, – dedim.

– Yeyishga... ozgina... non bera olasizmi?

Boshimdan oyog'imgacha titroq turdi.



– Hozir... hozir, – degancha uyga yugurdim. Ko'zimga nima yegulik ko'rinib, qo'limga nima ilinsa, patnisga qo'yib olib chiqdim. Ichiga issiq kirgach, ko'zlariga nur qo'ngandek bo'ldi.

– Uch oydan buyon Toshkentda tirikchilik qilyapman. Ota-onam yoshligimda vafot etishgan. Har kimning eshigida yurib, biror kasbning boshini tutolmadim. Hozir uyma-uy, kishilarning tomorqasi xizmatini qilaman. Ikki-uch kundan buyon ish yo'q, bekorchi bo'lib qoldim... Bir so'm ham topolmayapman...

Yigitcha xuddi aybdordek boshini egdi.

– Hozir hamma yoqda qurilish-ku. Har qayoqdan kelishyapti ishlashga. O'shanday joylarga borib ko'rmadingizmi?

– Bordim. Hammasi kompaniya, firmalar... Tavsiyanoma, shartnoma deydi... Ko'chadan borganni qabul qilavermaskan-da.

– Unda siz ham o'z joyingizga keting, mahallangizga boring. Kasb-hunar o'rgatishyapti, o'qitishyapti, ishonchli yo'l bilan chiqing ishlagani. Qurilish ham o'ta mas'uliyatli joy-da. Qarindoshlaringiz bordir, ota-onangizni ko'rgan ko'zlar, albatta, yordam berishar...

– O'zim ham shu haqda o'ylayapman... Lekin uyga yetib olishim uchun ham yetmish ming so'm kerak-da...

Gapining oxiriga qarab tovushi pasaya bordi. Eshitilar-eshitilmas so'zlar ichida ham pul summasini anglab qoldim. Yigitning xijolat bo'lishiga qaramay, qo'liga yo'lkirasini berdim. "Albatta, mahallaga uchrang. Bu yer katta shahar: yaxshi bor, yomon bor, deganday... Aldanib, adashib qolmang", deb qayta-qayta tayinladim. Ketdi.

Anchagacha vujudimni bir o't kuydirib turdi. "Ehtimol, yetim bo'lmaganida..." yoki "Mahallasi, qo'ni-qo'shnilari e'tiborliroq bo'lganida... Bu xilda notanish bir ayoldan ming xijolat bilan bir burda non so'rab yurmasmidi", deb yonganim bilan ich-ichimdan qismatining bosh aybdori uning o'zi ekanini bilib turardim. Ichimdagi isyonim o'z taqdiriga befarq bo'lgan yosh yigitning o'ziga edi. Axir el qatori maktab ko'rgandir. Unga ham ustozlar savod o'rgatgandir. Agar vaqtida yaxshi o'qiganida, diliga biror kasbning havasi tushib, harakat qilganida bugun tirikchilik uchun bunday sarg'ayib yurmasdi-ku. "Hozir ko'pchilik harakat odami, bunaqa tinib qolganlar dengizdan tomchi, nega kuyunasiz?" demang. Axir bitta shunday nochor bo'lsayam, u – o'zbek-da. Omon-omon zamonlarga yetganimizda biror millatdoshim tilanchilik uchun kaft ochib, qo'l cho'zmasin.

MUHIMI, SHIJOATIGA SHIKAST YETMAGAN

Yo'lda ko'p yuraman. U menga goh hasrat, goh quvonch, goh umid baxsh etadi. Odatda mashinaning orqa o'rindig'iga o'tiraman. Lekin bu gal orqa o'rindiq bog'lam-bog'lam daraxt ko'chatlari, nihollar bilan to'la bo'lgani uchun, noiloj, old o'rindiqdan joy oldim. Biroz yurgach, qorachadan kelgan, chayirgina haydovchining sportcha uslubdagi shimining pochasi hilvillab turganiga ko'zim tushdi. Demak, yigit nogiron, tizzadan pasti yo'q... Buning ustiga, haydovchining oyoq ostida odatiy mashinalarda bo'ladigan qismlar ham ko'rinmadi... U ulovni besaranjomroq boshqarardi. Bunday paytda odamning ko'ziga jon ko'rinadi. Bezovtalanayotganimni sezdi-yu, menga qarab:

– Opa, qo'rqmang, manzilingizga omon-eson yetkazib qo'yaman, – dedi.

– Bu... – deb oyog'iga ishora qildim-u, gapimni qanday davom ettirishni bilmay jim qoldim.

– Ha... O'smirlikda tog'amning mashinasini so'roqsiz minib ketib, avariya qilib qo'yganman. Ikkala oyog'im ham tizzamdan uzilib, suyaklarim sochilib ketgan... Tiriklikdan nasibam bor ekan, haftalab o'sal yotib, olti oy deganda shifoxonadan uyga chiqdim. Yomon tushkunlikka tushgandim,



o'lgim kelardi. Bir yog'i og'riq, bir yog'i yigit yoshimda tiriktovonlik... Ayb esa o'zimda... O'z yog'imga o'zim qovrilib yashayotgan kunlarimda opam matonat bilan hayotga qaytgan nogironlar haqidagi asarlarni olib kelib bera boshladi. Ko'pchiligi chet elliklar... Taskin topganday bo'ldim. Ichimda bir kuch uyg'ondi. Azaldan mashina minishga qiziqardim. Yoshim yetgach, o'qib, haydovchilik guvohnomasini oldim. Nogironlik aravachasiga ilk bor o'tirganimda juda uyalganman. Hamma menga qo'lini bigiz qilib ko'rsatayotgandek tuyulgan. Asta-sekin hammasiga ko'nikdim. Mana, ko'rib turganingizday, mashinamni qo'l bilan boshqarishga moslashtirib ham oldim.

– Hech qanday qiyinchilik sezmaysizmi? Protez degan gaplar ham bor-ku...

– Protezniyam sinab ko'rdim. Oyog'imning tirik qismiga moslashishi qiyin bo'ldi. Ko'proq harakat qilsam qonab ketaverib, jonimga tegdi. Voz kechib qo'ya qoldim. Qimmatgina edi. Mashinam boshqalarga g'ayritabiiy ko'rinadi, xolos. Boshqarishda hech qiyinchilik yo'q. Aravam yukxonamda turadi. Yig'ib, qayta o'ziga keltirsa bo'ladigan qilib olganman o'zim...

Osongina aytyapti u, lekin to'shakdan mashina ruligacha bora olish insondan hazilakam ruhiy va jismoniy kuch talab qiladimi? Axir, uzzukun mashinada o'tirmaydi-ku. Har tushib-chiqqanida kimdir uning aravasini o'ng'ay qilib berishi kerak. Har kuni bir necha bor kimlargadir sarg'ayishi bor... Undan "Oilangiz bormi, farzandlaringiz-chi?" deb so'ragim keldi. Bitta o'zining qora boshi uchun kirakashlik qilib yurmagandir. Lekin yo'q bo'lsa-chi... "Farzandingiz nogiron ekan", deb qizi bor oilalar shuningsiz ham har gal birovning eshigini ming hadikda qoqayotgan onani noumid qaytarayotgan bo'lishsa-chi... Og'iz ocholmadim. Biroq chin dildan shunday yigitning rafiqasi, o'g'il-qizlari bo'lishini xohladim.

– Qibrayda turamiz. Onam ko'chat, gul ekishga qiziqadilar. Hovlimizni bog', gulzor qilib yuborgan. Endi ko'chamizdagi ariqcha yoqalab daraxtlar o'stirishni xohlab qolibdilar. Vodiylik bir og'aynim ko'chat va'da qilgan edi, Farg'ona pitakka borib olib kelyapman-da...

Yigitning har bitta gapini jon qulog'im bilan eshitar edim. Manzilga yetgach, kelishganimizdan ko'proq haq bergim keldi.

– Meni xafa qilyapsiz. Halol topganim o'zimga bemalol yetadi. Odamlar menga rahm qilishini xohlamayman.

Ovozidan ranjiganligini his qilib qayta-qayta uzr so'radim. Biroq bo'g'zimga nimadir tiqilgandek bo'ldi. Tirikchilik ilinjida shaharga kelib nochor qolgan yigit bilan bog'liq hikoyadan so'ng nimaga ikkinchi voqeani keltirganimni izohlamoqchi emasman.

XOR QILGANNI ZOR QILISHI BOR

Abdulhamid (navbatdagi hikoyam qahramonining ismi shunday ekan. Agar men ijodiga-yu shaxsiga pir darajasida e'tiqod qiladiganim Cho'lpon hazratlari bilan otdosh bo'lmaganida, balki uning aytganlaridan qalbim bu qadar ozorlanmasdi) bilan ham yo'lda bir necha soat yo'ldosh bo'ldim. Aslida uni talablar asosida joylarga yuk eltib beruvchi odam deb o'yladim. Chunki orqa o'rindiqning bir chekkasida qaysidir restoranning manzili-yu telefonlari tushirilgan yozuvga ko'zim tushgandi. Ammo gap-so'zlaridan ma'lum bo'ldiki, u o'qituvchi, hatto maktab direktorining o'rinbosari ekan.

– Maktabdayam, institutdayam yaxshi o'qiganman. Talabaligimizda bir o'rtog'im bilan ixtiro ham qilganmiz hatto. Patent olgani mutasaddi tashkilotga borsak, mas'ullardan biri "Mayli, pulini beramiz, faqat ixtiro biz aytgan odam nomiga rasmiylashtiriladi", dedi. "Sengayam yo'q, mengayam", dedim. Barini qishloqdagi buvimning tandirida yoqdim. Endi maktabdayam haqsizlikka uchrab turibman...

– Qo'ysangiz-chi, maktab eng toza maskanlarimizdan biri, ayniqsa, hozir...

– Maktabda ishlamaysiz-da, bilmaysiz. Bor bilimimni bolalarga beraman. Mayli, bitta sinfdan o'nta emas, bitta yaxshi fizik chiqsin. Chiqaryapman ham. Lekin olqishlar maktabning mash'al muallimiga. Nima emish, u til bilarmish, sertifikati bormish...

– Axir, maktabdan bolalar kamida ikki tilni o'rganib chiqishiga harakat bo'lyapti-ku, til bilsa, siz aytgan hamkasbingiz shunga harakat qilsa kerak-da, – e'tiroz qilishdan to'xtamayman.

– Ey, hammasini o'qishga kirish uchun bo'layotgan harakat, deb o'ylayapsizmi? Yanglishasiz. Til o'rganayotgan aksariyat bolalarning orzusi chetga borib ishlash, lak-lak pul topish...

– Nimadandir alam o'tib qolibdi-da sizga. O'zingizni yengib olishingiz kerak.

– Bir qarorga kelib bo'ldim. Ketaman. Kirakashlik qilib bo'lsa-da, hozirgi oyligimni topaman. Kirakashlik qilmasam, eshigimning oldiga quti qo'yib, sigaret sotaman...

– Hay- hay, shu yerdan qayting. Qizingiz bormi?

– Alhamdulilloh, ikkita...

– Ah-ha, sovchi kelsa-yu, surishtira boshlashsa, "Otasi eshigi oldiga quti qo'yib, sigareta sotib o'tirar ekan", degan javobni eshitishsa nima-yu "Maktabda direktor o'rinbosari ekan", deyishsa, qanday bo'ladi? Shu taraflarini ham o'ylang-da...

Hamrohim qizarindi... To manzilimizga yetgunimizcha boshqa gap gapirmadi. Ismini ham kimdir qo'ng'iroq qilganida:

– Ha, men Abdulhamidman, – degan javobidan bildim. Anchagacha ichim tuzday achishib turdi...

Men ismida qarigur Abdulhamidga alamzadalik orqasidan iste'dodini ham, o'zini ham xor qilgan bir taqdir haqida gapirib bergim keldi:

– Yettinchi sinfda bizga sinfdan sinfga qolgan Qodir ismli bola qo'shildi. Odatda yomon o'zlashtirganlarni sinfdan qoldirishardi. Ammo Qodir bilimli edi. Ayniqsa, fizika, matematika kabi fanlarda hech kim uning oldiga tusholmasdi. Hatto o'sha fan o'qituvchilari tishi o'tmayroq turgan masalalarni ham birpasda yecha olardi. O'zidan nega bunday bo'lganini so'rashga yurak kerak edi. Chunki juda serzarda, jahldorligidan yonoqlari pir-pir uchib turadigan bola edi. Uzunquloq gaplarga ko'ra, sinf rahbari bilan janjallashib:

– Agar shu o'qituvchi menga sinf rahbari bo'lsa, o'qimaganim bo'lsin, – deb uch oylab darsga kelmagani sabab bo'lgan ekan. Qodir qizlarga juda nopisand edi. Bir aybini topib sharmanda qilardi. Shu holat boshimga tushmasligi uchun undan uzoqroq yurardim. Ammo nedirki, u mendan kitob so'raydigan, ayniqsa, adabiyotdan insho yozadigan bo'lsak, fikrlashadigan bo'ldi. Men ham aniq fanlardan yozma ishlarda undan so'ray boshladim. Ammo masofa saqlab gaplashardik. Xolalarimning qizlaridan biri Qodirning akasiga tushgach, u haqida ko'p gaplarni bilib oldim. Uni bolaligida farzand ko'rmagan tog'asiga o'g'illikka berishgan ekan. U "meni asrandi qilishgan", degan alam bilan yasharkan doim.

Men uning qalbida qatlanib yotgan alamlarning zalvorini tasavvur qilardim. Unga nimalardir degim, dunyoga nafrat bilan qaraydigan ko'zlaridagi yovvoyi o'tni o'chirgim kelardi. Ammo meni o'ziga haqiqat bo'lib ko'ringuvchi olamiga yaqinlashtirmasdi. Shu tarzda maktabni bitirib ketdik. Boshqa-boshqa shaharlarda o'qidik. Ammo taqdir g'ildiragi aylanib, necha yillardan so'ng Toshkentda ko'rishib qoldim. Qaysidir qurilish tashkilotida muhandis bo'lib ishlayotgan ekan. Juda qisqa gaplashdik. Xayrlashayotib ishxonamning manzilini aytib, kelib turishini so'radim.

– Vaqt yo'q, – dedi odatdagi qo'rsligi bilan. Izzat-nafsimga tegdimi:

– Ha-a, shunchaki aytdim-qo'ydim-da, – dedim.

Shu-shu boshqa ko'rishmadik. Ro'zg'or yuki og'irlashib, o'zim bilan o'zim bo'lib ketdim. Oradan ancha yillar o'tib, xolamning qizi Qodir haqida gap topib keldi:

– Sinfdoshingiz ichkilikka berilib ketibdi. Bir xonali uyda turar ekan. Uyiyam, o'ziyam bir ahvolda. "Nega bunday yashayapsiz, oila ham qurmabsiz", desam "Hech kim mening qadrimni bilmaydi. Atrof to'la hasadgo'y, ichiqoralar", dedi...

Shu yil qishda Qodir vafot etibdi... Birov bilan bordi-keldi qilmagani uchun mahalla kechroq xabar topibdi. Atrofiga nafrat bilan qaraydigan, achinib gapirganni ham masxara o'rnida qabul qilib qopadigan kimsa qanday dafn qilinardi... Agar bolaligidan boshlangan alamzadalik maraz kasallikka aylanib, jism-u jonini kemirib bormaganida bu yigitning iste'dodida el-u yurtimizga ham, o'ziga ham shon-shuhrat keltiradigan imkoniyatlar bor edi. Afsus, ming afsus...


MEN UNGA ISHONDIM

Ba'zan ish kunlarimiz ancha og'ir kechadi. Qaytishda mashinaga chiqib olaman-u ko'zlarimni yumib bir og'iz gapirmayman. Kimningdir gapirishini ham istamayman. Ammo kimgadir dilini to'kishni xohlagan odamga duch kelib qolsammi... Bu gal ham shunday bo'ldi. Yo'l tirband. Uzoq-uzoq to'xtab qolamiz. Haydovchi esa har to'xtaganda telefoniga yopishadi, nimalarnidir pichirlaydi. "Tavba, yoshi qirqqa yaqinlashib qolgan bo'lsa kerak, telefon o'ynashiga balo bormi?" deb o'ylayman.

– Nemis tilini o'rganyapman, – dedi haydovchi ko'nglimdan kechganlarini sezganday. – Ancha tilim kelib qoldi. Yana ozgina shug'ullanay. Keyin Germaniyaga ketaman...

– Tirikchilikkami? – Boshqa nimayam kelardi tilimga.

– Yo'q. Tirikchilik o'zimizda ham yomonmas. Bolaligimdan texnikaga qiziqaman... Serfarzand oilada o'sganman, o'qishga sharoit bo'lmagandi. To'g'rirog'i, o'qish bunchalik kerak bo'lishiga avvallari aqlimam yetmabdi. Lekin o'tgan asrning texnikalarini ham, zamonaviy texnika vositalarini ham



bemalol tuzata olaman. Avvallari ustalar yonida o'ralashib yurib o'rganardim. Hozir internet beminnat ustoz. Har kuni ish bor.

– Shunday bo'lsa Germaniyada nima qilasiz? Musofirlikning noni qattiq bo'lishini bilarsiz...

– Bir kompaniyaga bordim. O'zimning qanday ustaligimni aytdim, soha bilimdonlari bir soatdan oshiqroq savol-javob qilishdi. "Nahot shuncha narsani mustaqil o'rgangan bo'lsangiz...", deb hayron ham bo'lishdi. Keyin "uch million oylikka rozi bo'lsangiz, sizni ishga olamiz", deyishdi. Sekin surishtirsam, mendek mutaxassislar sakkiz million maosh olishar ekan. Mayli, menga uncha berishmasin, "hech bo'lmasa, besh million bering", desam, "Uch"gayam jon deng, o'qimagan bo'lsangiz, bir kaftcha keladigan qattiq qog'ozingiz yo'q", deb yubordi. Eshigini sekin yopib chiqdim.

– Chakki qilibsiz, ishingizni ko'rishgach, oshirishardi balki, sabr qilish kerakmidi?

– Men shu holimda ham diplomlilar bilan teng haq olishga haqliman. "Hap sanimi, bir joydan yorib chiqmasammi", dedim. Astoydil qiziqib ko'rdim, eng zamonaviy texnikalarning ehtiyot qismlari Xitoy, Germaniya kabi davlatlardan kelar ekan. Avval xitoy tilini o'rganmoqchi bo'ldim, qiyin ekan. O'rgansa bo'ladi-yu ko'p vaqt talab qilarkan. Shuning uchun nemis tilini o'rganishni boshladim. Hujjatlarimni migratsiya xizmatiga topshirib qo'yganman. Ham o'qiyman, ham ishlayman, texnika ta'mirining eng nozik tomonlarigacha o'rganib kelib, o'zim zo'r firma ochib, o'sha iqtidorimni qadrlamaganlarga kuchli raqobatchi bo'laman...

Hamrohim o'zining gaplaridan o'zi zavqlanib yurakdan kuladi...


– Niyatingizga yeting. Mengayam motivatsiya berdingiz. O'g'lim "Haydovchilikka o'qing, mashina olib beraman", desa "Qirqimda surnay chalishni o'rgansam, o'lganimda chalamanmi", deb unamasdim. Sizning shashtingizni ko'rib, oyoqda yuribman-ku, o'qisam bo'lar ekan, deb o'ylayapman. Mashinam buzilib qolsa, sozlab beradigan ustayam tayyor ekan, – hazil aralash gap qotaman.

"O'ZINGDIN ISTAG'IL..."

Shitob evrilayotgan zamonlar, zamonlar nafasi akslangan tuzuklar, qonunlar ishlayotgan mamlakat imkonlari ham odamlarning o'zini anglashida katta o'rin tutadi. Ammo yuqoridagi voqealardan ham ko'rib turganingizdek, har kimning o'zi o'z taqdirining qahramonidir. Yuksalish ham, cho'kish ham odamning o'ziga bog'liq. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek:

O'z vujudingg'a tafakkur aylag'il,
Har ne istarsen, o'zingdin istag'il...

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi



TAHLIL

BOG‘ISTONGA AYLANAYOTGAN YURT

Muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan “Yashil makon” dasturi doirasida atrof-muhit obodligi, manzarali ko‘chatlar o‘tqazish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Asrlar davomida sinalgan, mahalliy sharoitga mos bo‘lgan tut, gujum, eman, yong‘oq, qayrag‘och, jiyda, tol va shunga o‘xshash mevali va manzarali daraxtlarni ko‘paytirish va har bir xonadonda ko‘chat ekishni rag‘batlantirishga urg‘u berilayotgani bu ishga har bir fuqaro shaxsan mas’ul ekanini anglatadi.

O‘TMISHDAN IBRAT

Qadimdan ota-bobolarimiz mevazor bog‘lar tashkil etish va ko‘rimli ko‘chatlar o‘tqazish masalasiga jiddiy e’tibor berishgan. Chunki meva-cheva tirikchilik manbayi hisoblansa, manzarali ko‘chatlar ko‘zni quvontirish uchun parvarishlangan.

Amir Temur tabiatni avaylab-asrash, yer va suvdan samarali foydalanish, cho‘l-biyobonlarni obodonlashtirish borasida juda ko‘p sa’y-harakat qilgan. Bu haqida “Temur tuzuklari”da shunday deyiladi: “...Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar, hammomlar qurishni, musofir yo‘lovchilar uchun yo‘l ustida rabotlar bino qilishni, daryolar ustida ko‘priklar qurishni buyurdim. Qayerdaki bir daraxt qo‘porilsa, o‘rniga o‘n daraxt o‘tqazishni buyurdim...”

O‘sha davrda Sohibqironning farmoyishiga ko‘ra Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida sug‘orish tarmoqlari chiqarilib, ekin maydonlari kengaytirildi. Samarqand, Toshkent, Buxoro, Shahrisabz, Kesh va Farg‘onada irrigatsiya-sug‘orish kanallari ishga tushirildi. Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryo ustida ko‘priklar qurildi. Markaziy Osiyo hududida ilk bora zax suvlarni qochirish maqsadida zaxkashlar qazildi. Jumladan, Buxoro vohasining bir necha tumanlaridan o‘tuvchi Amir Temur zaxkashi o‘sha paytlarda ishga tushirilgan. Bunday ulkan bunyodkorlik ishlari boshqa hududlarda ham davom ettirildi. Tarixchi Hofiz Abro‘ning yozishicha, Amir Temur Xurosondagi Murg‘ob vodiysida obodonchilik va dehqonchilik ishlarining nochor ahvolda ekanligini ko‘rib, daryodan bosh oluvchi 20 ta kanal qazdirib, suv chiqarib dehqonchilik va bog‘dorchilik ishlariga asos soladi. Qorabog‘da 42 km masofada kanal qazdiradi, Ozarbayjonning Mug‘on shahrida 12 ta bog‘ barpo etadi.

Amir Temur davrida betakror bog‘lar yaratilgan va ularga o‘ziga xos nomlar qo‘yilgan. Bular tarixchilar, shoirlar, sayyohlar asarlarida, o‘rta asrlar rassomlari miniatyuralari tasvirlarida aks ettirilgan. Movarounnahrning Samarqand, Toshkent, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarida biri-biridan go‘zal bog‘lar bunyod etilgan. Mazkur bog‘lar qadimiy an’analarga ko‘ra ikki xil ko‘rinishda, ya’ni tabiiy xushmanzara bog‘lar va geometrik shakldan tashkil topgan tartibli bog‘lardan iborat bo‘lgan. Bu bog‘larning obod bo‘lishi, gurkirab yashnashi uchun so‘zsiz, birinchi navbatda suv masalasi oqilona hal qilingan. Tabiiy manzarali bog‘larning bir qismida dam olish uchun saroy va ayvonlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o‘rnatilgan. Bu turdagi bog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo‘lgan.

Amir Temur Movarounnahr hududidagi shaharlarning obodonchiligiga, jumladan, Toshkent shahriga ham alohida e’tibor qaratgani tarixdan ma’lum. Shahar atroflari dehqonchilik qilinadigan obod hudud sanalib, muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan makonlardan biri, mo‘tadil iqlimi, sersuvligi bilan ajralib turgan. Toshkentni suv bilan ta’minlashda Sirdaryoning irmog‘i Chirchiq daryosi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu daryodan Bo‘zsuv, Salor, Anhor, Kaykovus, Qorasuv kanallari bosh olib, atrofida shaharlar bunyod etilgan. Bu yerda dehqonchilik, jumladan, bog‘dorchilik taraqqiy etgan. Ayniqsa, shahar Amir Temur davrida ravnaq topib, hududi yanada kengaygan. “Bog‘iston”, “Bog‘i chinor”, “Bog‘i shamol”, “Bog‘ ko‘cha”, “Olmazor”, “Bodomzor”, “O‘rikzor”, “Terakzor”, “Qatortol” kabi bog‘ nomlari shu davrlarda shakllangan. Bu bog‘larni suv bilan ta’minlashda Darxonariq, Bo‘zariq, Zaxariq, Labzak arig‘i, Jonariq kabilar muhim rol o‘ynagan.

Samarqand shahrining sohibqiron Amir Temur davridagi ulug‘vorligini tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida juda aniq ifodalab



bergan. Shuningdek, tarixchi ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi” nomli asarida: “Temur Samarqandning atroflari va etaklarida bir necha qasaba (shahar)-lar bunyod qilib, ularni buyuk shaharlar Misr, Damashq, Bag‘dod, Sultoniya, Sheroz kabi azim va poytaxt shaharlar nomi bilan atadi”, deb yozgan edi.

Rui Gonsales de Klavixo Movarounnahrdagi Samarqand, Buxoro, Shosh, Kesh, Shahrisabz va boshqa shaharlarda oqar suvlar, o‘tloqlar, bog‘-rog‘lar, ekinzorlar gavjum ekanini yozgan.

Amir Temur barpo etgan bog‘larda mevali daraxtlardan tashqari chinor, tol, terak, tut, gujum va boshqa manzarali og‘ochlar o‘tqazilgan. Sohibqironning bog‘lar barpo etish an’anasi temuriyzodalar Shohruh mirzo, Ulug‘bek mirzo, Sulton Husayn mirzo, Bobur mirzo tomonidan davom ettirilgan.

TARIXIY AN’ANALARIMIZ

Qadimdan yurtimizda ko‘chat o‘tqazish va uni parvarish qilish muqaddas ish sanalgan. “Boqiy Buxoro” monumentida chol va nabiraning daraxt ko‘chati o‘tqazish holati tasvirlangani bejiz emas. Axir, hayot insonning tabiat bilan hamohangligidan boshlanadi-da aslida.

Isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: atrof-muhit sofligi va ekologiyani avaylab-asrash hammaning ishi. Axir biz umrguzaronlik qilayotgan muhitning toza havosi uchun o‘zimizdan boshqa yana kim ham qayg‘urishi mumkin. Qadimda farzand tug‘ilishi bilanoq kelgusida o‘sib voyaga yetsa, o‘ziga imorat qurib olsin deb kamida 21 dona daraxt ekishgan ekan.

Yaqinda Mustaqillik bayrami oldidan Buxorodagi Labi hovuz majmuasi Nodir Devonbegi madrasasida “Uch avlod uchrashuvi” bo‘lib o‘tdi. Mening diqqatimni madrasa hovlisidagi balxi tut beixtiyor o‘ziga tortdi. O‘ylanib qoldim. Ehtimol, bu tut shu bino qad rostlaganida ekilgandir. Qadim Buxoroning har bir masjid va madrasasi, imoratlari va dala shiyponlari oldida asosan balxi tut o‘tqazilgan. Barglarining rangiga boqsangiz, ko‘z yashnaydi. Yashil emas, to‘q va pishiq rangidan odam to‘yadi. Qaddi-qomati ham tik bo‘lib, bo‘yi chamasi 20–25 metrni tashkil etadi. Uning ostiga qo‘yilgan so‘rida soyasalqin va toza havoda o‘tirib, maza qilib dam oldik, suhbatlashdik. Tut daraxti 150–200 kilogramgacha sifatli meva ham beradi. Aytishlaricha, urush yillarida tut mevasi non o‘rnini bosgan ekan. Tutning yana bir xususiyati kech kuzda sovuq urishi bilan barglarini birdan to‘kadi va ular yig‘ishtirib olinsa, chorvaga yaxshigina ozuqa bo‘ladi.

Havoni toza saqlash, ekologik muhitni avaylab-asrashda uning o‘rni benihoya katta. Qadimdan tut daraxti qadrli sanalgan. U juda uzoq umr ko‘radi. Tanasi nihoyatda baquvvat bo‘lib, yog‘ochidan turli buyumlar yasaladi.

Tut daraxtining ildiz tizimi juda rivojlangani bois, u qadimdan imoratlarning oldiga ekilgani ham bejiz emas. Avvalo, ular o‘z shoxlari bilan shu atrof-muhitda mikroiqlim hosil qilib, soya-salqinlik beradi. Shuningdek, yer osti suvlarining bug‘lanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, yer sho‘rlanishining oldini oladi. Imoratlarni zax bosishidan saqlaydi. Qadimdan dala maydonlari chetiga ekilgan balxi tutlar ekinni garmsel urishidan saqlab qolgan.

BUXORONING YASHIL QALQONI

Buxoro paxtachiligining yirik seleksioner olimi Avxat Batalov viloyat hokimi nomiga o‘tgan asrning 50–60-yillarida Buxoro viloyatining shahar va tumanlari markaziga asosan shumtol (yasen) daraxti o‘tqazilgani, biroq endilikda ularni pala-partish kesib tashlash holatlari kuzatilayotgani va bunga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini bildirib, xat kiritganidan xabarim bor. Bu daraxt xalqimiz orasida hozir ham “o‘ris daraxt” deb nomlanadi. To‘g‘risi, bu daraxt Buxoroning iqlim sharoitida u qadar baravj o‘smasa-da, iqlimimizga nihoyatda chidamli ekanligini kuzatish mumkin. Bu daraxtni seleksioner olim “Buxoroning yashil qalqoni” deb atagan edi. Hozirgi kunda hatto shu daraxt ham juda kamayib ketdi, shuningdek, yangidan biror yerda o‘tqazilayotgani ham yo‘q.

Manzarali daraxt sifatida nina bargli daraxtlarni ko‘p ekamiz. Ammo kasallik tarqatuvchi hasharotlar doimiy yashil bo‘lib o‘suvchi daraxtlarni xush ko‘rgani natijasida bu og‘ochlar ko‘p kasalliklarga chalinmoqda.

Xo‘sh, nega keyingi yillarda manzarali daraxt sifatida nina bargli daraxtlar o‘tqaziladigan bo‘ldi? Aslida, manzarali daraxtlar, jumladan, archa, qora archa, qarag‘ay va qora qarag‘ay tabiatan uzoq yil yashaydigan daraxt sanalsa-da, ammo bizning iqlimimizda juda tez qarib qolayotganini kuzatish mumkin. Qarag‘ay bizning sharoitda 15–20 yil o‘tmay eskirib, pastki shoxlari qurib qolayotgani, shuningdek, harorat -15 darajadan tushib ketganida sovuq urishi holati kuzatilmoqda. Qora archa esa haddan tashqari ko‘p kasallikka chalinayotgani oqibatida qurib qolayotganini ko‘rish mumkin. Lekin shunga qaramay, keyingi yillarda o‘rmon xo‘jaliklari va obodonlashtirish bo‘limlari asosan nina bargli daraxtlarni yetishtirishga ixtisoslashtirildi.

HOSILA

Xoja Bahouddin Naqshband ziyoratgohiga kirib, chinni gujumlarga bir boqing: qanchalar ajoyib va so‘lim manzara! Nega shunaqa daraxtlarni yo‘l bo‘ylarida o‘tqazish, ularning ko‘chatlarini yetkazishni ko‘paytirish mumkin emas. Bu masalada Toshkent shahrida juda katta tajriba bor.

Toshkentda 1966-yilgi zilziladan keyin qayta qurish olib borilayotgan paytda, markaziy maydonning Favvoralar xiyoboni yonida bir dona eman daraxti bo‘lib, shu joyning me’moriy yechimi nuqtayi nazaridan uni olib tashlash lozim bo‘lib qolgan. Masala Respublikaning birinchi rahbari darajasigacha ko‘tarilibdi. Sharof Rashidov “Bu nihoyatda jiddiy masala, o‘zim borib ko‘rib, fikrimni aytaman”, debdi va ertasi kuni tong saharda maydonga yetib kelibdi. Qarasaki, bir necha yuz yoshli eman daraxti barq urib o‘sib turgan ekan. Shunda birinchi rahbar hech bir ikkilanishsiz, eman daraxtini saqlab qolish haqida ko‘rsatma bergan ekan. O‘sha daraxt hali-hamon yashnab turganini ko‘rib, Sharof otaning uzoqni ko‘ra bilishiga tan beraman. Har bir daraxtga xuddi shunday ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishimiz lozim emasmi?!

Fikrimcha, yo‘l bo‘ylariga kamishlov, kam suv talab qiladigan, uzoq yillar o‘sadigan, turli xil kasalliklarga chidamli, mahalliy hududning iqlim sharoitiga mos daraxtlarni o‘tqazish lozim. Yo‘l va ariq bo‘ylarida eman, terak, chinni gujum, tol, kashtan, tut, yapon sakurasi va shunga o‘xshash manzarali daraxtlarni ko‘paytirish maqsadimizga muvofiq keladi.

Eng muhimi, boshlangan xayrli tashabbusni har birimiz munosib davom ettirishimiz, bu zamin va tabiat bizga omonat ekanini unutmasligimiz kerak.

Muhammadqosim OLIMOV,
Kasaba uyushmalari
Buxoro viloyati kengashi raisi,
“Mehnat shuhrati” ordeni sohibi

E’TIROF



RAQAMLAR “gapirgan”da

haqiqat yuzaga chiqadi

Xorijlik mutaxassislarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan Yer yuzi aholisi soni, yashash tarzi, umr ko‘rish muddati, ijtimoiy ahvoli haqidagi tahlillariga tasodifan ko‘zim tushib qoldi.

Hozirda sayyoramizda sakkiz milliarddan oshiq aholi bor. Yer sharida oltita qit’a mavjud ayni holatda ushbu aholining 60 foizi Osiyoda yasharkan. Bu esa aynan otamakonimiz bo‘lmish qit’ada aholi zichligini ko‘rsatadi. Aksar iqtisodiy, ijtimoiy muammolar aynan aholi sonidan kelib chiqadi. “Bir tovuqqa ham don, ham suv kerak” deyilmish otaso‘zimiz bor-ku, axir!

Ishonasizmi, inson umri biz o‘ylaganchalik uzoq emas ekan. Taqdiriga tug‘ilish tushgan bandalarning faqat 7 foiziga 65 yoshdan uzoq yashash nasib qilarkan. Yoki sakkiz milliard odamning faqat 7 foizi oliy ma’lumot olish baxtiga erisharkan.

Xo‘sh, bu borada bizda natija qandayligini ko‘rib chiqaylik.

Tadqiqot muassasalari tomonidan doimiy ravishda o‘tkazib kelinayotgan kuzatuvlar, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bizda o‘rtacha umr 76 yoshni tashkil qiladi. Bu esa ayrim Afrika davlatlari fuqarolaridan deyarli ikki barobar ko‘proq umr ko‘rishimizni anglatadi. Va hatto, bu qiyoslashda Amerika qit’asidagi ko‘pgina davlatlardan oldindamiz.

Inson uzoq umr ko‘rishi tabiiy muhitga, va, albatta, iqtisodiy omillarga bog‘liq. Odam sog‘lom turmush kechirishi, to‘yib ovqatlanishi, hayotiy muammolar girdobida qolmasligi, qolaversa, ma’naviy yuksaklikka erishishi umri uzoqligini ta’minlaydi. Jamoaviy munosabatlar yopiq ko‘rinishda bo‘lgan, o‘zaro mehr-oqibat yo‘qolgan, oila instituti barbod bo‘lgan ayrim jamiyatlarda, garchi iqtisodiy barqarorlik kuzatilsa-da, uzoq yashash ko‘rsatkichi tobora pastlab borayotir. Sharqona qadriyatlar tamoyilida muqim turgan jamiyatimiz bu borada ko‘p millat va xalqlarga o‘rnak bo‘lgulik.

Esingizda bo‘lsa, sakkiz yil muqaddam yurtimizda atigi 65 ta oliy o‘quv yurti bor edi. Hozirda universitetlar soni ikki yuzdan oshdi. Har yili bu dargohlar uch yuz mingdan ziyod yoshlarni talabalikka qabul qilmoqda. Xorijdagi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan yurtdoshlarimiz safi ham yil sayin kengaymoqda. Natijada har yili salkam yarim million kishi oliy ma’lumotli mutaxassis diplomini olyapti. Qisqasi, hozir bizda besh milliondan ko‘proq kishi oliy ma’lumot egasi. Bu esa umumaholi sonining deyarli 14 foiziga to‘g‘ri keladi yoki dunyo bo‘yicha ushbu yo‘nalishdagi ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘p. Yaqin besh yilda bu ko‘rsatkich 17 foizga chiqishi kutilyapti.

Agarda davlat rivojlanishini aynan o‘qimishli insonlar ta’minlashi, oliy ma’lumotli mutaxassislar barcha sohalar taraqqiyoti garovi bo‘lishini inobatga olsak, yurtimizda oliy ta’limga davlat tomonidan katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emasligiga amin bo‘lamiz. Shu bilan birga, o‘qimishli insonlar jamiyatda ma’naviy-ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish, odamlar tafakkuri yuksalishiga xizmat qilishini ham unutmaslik kerak.

...Dunyo aholisi taqdirini raqamlarda aks ettirgan ma’lumotnomani varaqlashda davom etamiz. Hozirda Yer yuzi aholisining 35 foizi toza ichimlik suvidan bebahra ekan. Xudo yarlaqagan yurtimizda besh yuzdan ortiq daryo, soy mavjud. Tog‘oldi qishloqlarida yashaydigan aholi aynan shifobaxsh soylar va buloqlar suvidan bahramand. Shaharlarni qo‘ya turaylik, hatto eng ko‘hna qishloqlarga ham quvurli suv yo‘llari tortilgan.

“Tuyamo‘yin-Urganch” va “Tuyamo‘yin-Nukus” quvurli suv tarmog‘i butun Quyi Amudaryo mintaqasini ichimlik suvi bilan ta’minlay boshlaganiga ham o‘ttiz yildan oshdi. Bu misolni keltirishim sababi, Orol qurishi bilan yuzaga kelgan ekologik tanglik sharoitida vohada ichimlik suvi muammosi yuzaga chiqqandi. Bizning chekka elatimizga ham aynan shu tarmoq orqali quvurli suv yetkazib berila boshlagandi. O‘tgan yili elatimizda aholi soni o‘sgani inobatga olinib, qo‘shimcha quvurlar yotqizildi. Bu bilan ichimlik suvini uzluksiz yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi.

“Aholi o‘sishi” iborasi ortidan yana bir masala – turar joy bilan ta’minlash ham yuzaga chiqadi. Bugun sayyoramiz aholisining 25 foizi yoki har to‘rt oiladan biri o‘z turar joyiga ega emas.

Hozir yurtimizdagi viloyat va tuman markazlarida besh va hatto yetti qavatli turar joylar qad rostlagan. Aholini turar joy bilan ta’minlash maqsadida har bir tumanda “siti”lar, ya’ni ko‘p qavatli mavzelar barpo bo‘layotir.

...Mahallamiz raisidan so‘radim: “Uch ming kishi istiqomat qilayotgan mahallamizda o‘z uyiga ega bo‘lmagan oila bormi?” Rais qog‘oz varaqlamasdan javob berdi: “Bir oila bor edi. U ham qo‘shni tumanga turmushga chiqib, oilasidan ajralgan ikki bolali kelin. Otasining hayhotdek hovlisi bor – o‘n xonali uy. Ammo farzandlari bilan alohida yashamoqchi. Hokimlik unga subsidiya orqali uy ajratdi – yil oxirigacha ko‘chib o‘tadi”.

Raisi bir emas, ikki hovlisi bor, bundan tashqari tuman, viloyat markazi va hatto poytaxtda qurilayotgan ko‘p qavatli turar joylardan xonadon olayotganlar haqida aytib o‘tirmadi. Aytmasa-da, hammasi ma’lum – qancha mahalladoshlarimiz, tanishlarimiz markazlarda qurilayotgan uylarni xarid qilganlarida ehsonga chaqirgan, ularga “Imorat muborak!” tilagini aytganmiz.

Aynan turar joy mavzusi o‘rtaga chiqqanida bir yangilikni aytish kerak. Prezidentimiz yaqinda imzolagan qonunga ko‘ra, 2019-yildan oldin noqonuniy qurilgan imoratlar egallagan yer maydonlarini qonuniy izga ko‘chirish amaliyoti boshlandi. (Uch yil oldin ham shunday noqonuniy holatlarga amnistiya e’lon qilingandi). Bunday noqonuniy qurilgan va egallangan imorat va yer maydonlari oz emas, bir millionga yaqin ekan.

Qarang, bir million uy!

Aholini turar joy bilan ta’minlash borasida mamlakatimiz dunyoda yetakchilar qatorida.

Yuqoridagi raqamga (dunyoda o‘z uyiga ega bo‘lmaganlar umumaholining 25 foiziga teng) taqqoslasak, bizda bu ko‘rsatkich hatto bir foizga ham yetmaydi.

Yana bir raqamni qiyoslaymiz. Aholi o‘sishi asnosida ekin maydonlarini kengaytirish va boridan unumli foydalanish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Negaki, tirik jon o‘laroq inson kuniga kamida uch marta ovqat iste’mol qilishi kerak. Oziq-ovqat esa yer maydonlarida yetishtiriladi.

Rivojlangan Yaponiyaning sug‘oriladigan yer maydonlari biznikidan besh marta kam, garchi aholisi deyarli uch yarim marta ko‘p bo‘lsa-da. Bu nomutanosiblik vaqt kelib o‘z so‘zini aytishi tayin. Negaki, kundalik oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan xarid qiladigan davlatlar yaqin yillarda umumg‘aznasining katta qismini shunga sarflash majburiyatida qoladilar. Bu esa oziq-ovqatga talab oshishi, o‘z navbatida, ularning narxini yetkazuvchi tomon belgilashiga sabab bo‘ladi.

Davlatimizda hozirda har bir tirik jonga o‘rtacha 15 sotix sug‘oriladigan yer maydoni to‘g‘ri keladi. Agarda iqlimi mo‘tadil hududlarda bir mavsumda yer maydonlaridan ikki va hatto uch marta hosil ko‘tarish tajribasi allaqachon amaliyotga aylanganini eslasak, yerning naqadar bebaho boylik ekanini anglaymiz. Bu borada yurtimiz dunyoning istalgan davlati bilan raqobatlasha oladi.

...Tasodifan ko‘zimiz tushgan raqamlarni “gapirtirish” va o‘zimizdagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslashni shu yerda to‘xtatamiz. Negaki, uzundan-uzun raqamlarni o‘zaro solishtirsa, maqolaga sig‘maydi. Bundayroq bir risola bo‘ladi.

Ozod va obod, farovon va tinch yurtda yashash tolemizga yozilganidan minnatdor bo‘lmog‘imiz kerak. Uning yanada rivojlanishiga imkonimiz qadar hissa qo‘shish barchamizning fuqarolik va insoniylik burchimizdir!

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Boshlanishi 1-sahifada.

MILLAT FIDOYILARI:

MUHAMMADXON XO‘JAYEV

1933-yil 17-iyunda og‘ir xastalik tufayli OGPU qaroriga binoan muddatidan avval ozod etilgan. 1935-yili Qo‘qon shahriga qaytib kelib, 1937-yilga qadar “Intrud” (Nogironlar mehnati) artelida g‘aznachi bo‘lib ishlagan. Oila a’zolari: otasi – Ubaydulloxo‘ja Xo‘jayev 1848-yilda tug‘ilgan, hunarmand. Onasi – Umriniso Ahmadjonova 1878-yilda tug‘ilgan, uy bekasi.

Qatag‘onning eng avjiga chiqqan “Katta terror”ida qo‘qonlik adliya va prokuratura tizimida xizmat qilgan Muhammadxon Xo‘jayev ikkinchi bor qatag‘on qilingan. U 1937-yil 21-avgustda O‘zSSR NKVD tomonidan aksilinqilobiy targ‘ibot olib borishda faol ishtirok etganlikda ayblanib hibsga olingan. O‘sha kunning o‘zidayoq NKVD xodimlari tomonidan uning uyida tintuv o‘tkazilgan. Tintuvda Xo‘jayevning 90 varaqli shaxsiy ishi, 10 varaqdan iborat mehnat daftarchasi, 1913-yilda nashr etilgan jadidlarning “Shalola” jurnali (Abdulhamid Cho‘lpon 1913-yil Ismoil G‘aspraliga yozgan maktubida jadid gazeta va jurnallar qatorida “Shalola” jurnalini ham muntazam o‘qiyotganini aytgan), arab imlosida yozilgan varaq, lotin yozuvida bosilgan 8 ta gazeta parchalari, 3 ta fotosurat, pasport, 7 ta turli ma’lumotnoma, Visher lagerining №1989 raqamli ma’lumotnomasi olingan.

Mahbus Muhammadxon Xo‘jayev 1937-yil 10, 19, 24-sentyabr, 1-oktyabr kunlari tergov qilingan. Guvoh Mirzahotam Alimov 1937-yil 19-sentyabrda o‘tkazilgan tergovda Xo‘jayevni 1917-yildan beri tanishini, inqilobdan avval Qo‘qonning eski shahar qismida ipak savdosi bilan shug‘ullanganini, Turkiston muxtoriyati faoliyatida faol ishtirok etganini, 1930-yilgacha “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lganini aytgan. 1937-yil 8-oktyabrda guvoh sifatida tergov qilingan Ismoiljon Ismatullayev Muhammadxon Xo‘jayevning 1918-yil Turkiston muxtoriyati tor-mor qilinishidan oldin Qo‘qonning eski shahar qismidagi jome masjidida ko‘p marta nutq so‘zlab, aholini “Sho‘royi islom” tashkilotini qo‘llab-quvvatlashga va bolsheviklarga qarshi kurashga chaqirganini aytgan.

Muhammadxon Xo‘jayevning turmush o‘rtog‘i Rahbarxon Tojiyeva 1937-yil 8-oktyabrda guvoh sifatida so‘roq qilingan. Tergovchining Muhammadxon Xo‘jayevning aksilinqilobiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz, degan savoliga u “Erimning hech qanday aksilinqilobiy faoliyati haqida ma’lumotga ega emasman, erimning do‘stlari qanday faoliyat bilan shug‘ullanishini bilmayman va ularni yaqindan tanimayman”, deb javob bergan.

Qo‘limizda 1937-yil 1-sentyabrda Qo‘qon shahrida NKVD va davlat xavfsizligi kichik leytenanti Solovyov tomonidan taqdim etilgan va NKVD davlat xavfsizligi komiteti 4-bo‘lim boshlig‘i, katta leytenant Fukin imzolagan, O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligi davlat xavfsizligi komiteti boshlig‘i katta leytenant Chernishev tasdiqlagan qarorda Muhammadxon Xo‘jayevning yoshi 43 da ekani, o‘zbek, Xo‘jand shahridan, Qo‘qonga kelib qolgani, o‘tmishda ipak savdosi bilan shug‘ullangani, so‘nggi vaqtda “Intrud” magazinida kassir bo‘lib ishlagani qayd etilgan. Muddatidan oldin qamoqdan ozod etilib, 1935-yili yashash joyi Qo‘qon shahriga kelganligi, Og‘alikov va boshqalar ishtirokidagi aksilinqilobchi, millatchi unsurlar bilan aloqasini tiklaganlikda ayblangan. Mavjud tuzumga tizimli ravishda dushmanlik kayfiyati bilan sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borganlikda, partiya va hukumat dohiylari sha’niga aksilinqilobiy bo‘htonlar qilganlikda, shu bilan birga, xalq dushmanlari bo‘lmish trotskiychilarni maqtaganlikda va mahalliy xalq hayotini yaxshilash uchun kurash olib borayotganlikda (!) ayblanib, qaror qilingan: Muhammadxon Xo‘jayev O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan jinoiy javobgarlikka tortilsin. Qo‘qon turmasida qamoqda saqlansin.

NKVD tergovchisi B.I.Solovyov 1937-yil 2-oktyabrda mahbus M.Xo‘jayevni tergov qilgan:

– Siz qachon “Milliy ittihod” millatchi tashkilotiga a’zo bo‘lgansiz?

– Men hech qanday millatchi aksilinqilobiy tashkilotlarga a’zo bo‘lmaganman.

– Qancha muddat “Milliy ittihod” tashkiloti kotibi Ahmadxonovning xonadonida o‘tkazilgan noqonuniy majlislarda ishtirok etgansiz?

– Men hech qachon Ahmadxonovning uyiga bormaganman, o‘zi bilan shaxsan tanish emasman.

– Tergovga ma’lumki, siz oblast sudining 27 nafar tergovchisi bilan birgalikda sobiq quloq va bosmachilarni himoya qilib, ularning jinoiy ishlarini atayin cho‘zib ushlab turgansiz.

– Men jinoyat ishlarini atayin cho‘zmaganman va to‘xtatmaganman. 1927-yili tergovchi sifatida prokurordan Qo‘qonning Gumer qishlog‘idagi faol Chinorbibi va uning turmush o‘rtog‘i Qalandarovning o‘ldirilishi haqidagi materiallarni olganman. Bu ish bilan taxminan 2 oy shug‘ullanganman. Biroq aybdorni topish imkoni bo‘lmagach, ishni to‘xtatish uchun prokurorga so‘rov yuborganman. Ammo keyinchalik jinoyat qidiruv ishlarida aniqlanishicha, qotillikni Abdujalil Bo‘taboyev va uning sheriklari sodir etgan. Ularning 2 nafari oliy jazoga, qolgan 4 nafari turli muddatga qamoq jazosiga hukm etilgan.

– 1931-yilda nima sababdan sudlanganisiz va qanday jazoga hukm etilgansiz?

– Respublika prokurori yordamchisi Badriddinov ishi doirasida sudlanganman, yuqorida nomlari qayd etilgan ikki shaxsning jinoiy ishi yuzasidan ayblanganman va 10 yil ozodlikdan mahrum qilinganman. Biroq kasalligim tufayli 1933-yilda muddatidan avval qamoqdan ozod qilinganman.

– Qamoqdan qaytgach, qaysi mahalliy millatchilar bilan aloqada bo‘lgansiz?

– Qamoqdan qaytgach, hech qanday millatchilar bilan aloqada bo‘lmaganman.

– Tergovga ma’lumki, siz jazoni o‘tash muassasasidan qaytganingizdan boshlab Ashurali Zohiriy, Olim Xo‘jayev, Akramxon Mahmudov, Abdullajon Juvonmardiyev, G‘affor Muhammadiyev bilan aloqalaringizni tiklagansiz. To‘g‘ri guvohlik bergan holatda qachon va qanchalik tez-tez uchrashganingiz haqida ma’lumot bering.

– Ashurali Zohiriy va Olim Xo‘jayev bilan umuman tanish emasman. Akramxon Mahmudov (notarius), Abdullajon Juvanmardiyev (sobiq xalq sudi va advokatlar kollegiyasi a’zosi), G‘affor Muhammadiyev (sobiq Farg‘ona okrugi sudi a’zosi)ni 1922-1923-yillardagi adliya organlarida mehnat faoliyatim davridan beri bilaman. Ular bilan qamoqqacha va qamoqdan so‘ng ko‘chada oddiy tanish sifatida uchrashib turganman. Boshqa hech qanday aloqam bo‘lmagan.

Yuqoridagi tergov jarayonlari va bir qancha boshqa shaxslarning ko‘rsatmalariga asoslangan holda Muhammadxon Xo‘jayev 1918-yilda Turkiston muxtoriyati tuzilishida faol ishtirok etganlikda, Qo‘qondagi jome masjidida “Sho‘royi islom” millatchi tashkiloti foydasiga targ‘ibot yuritib, aholi orasida bolsheviklarga qarshi kurashni targ‘ib qilganlikda, 1930-yilga qadar “Milliy ittihod” millatchi aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi bo‘lganlikda, o‘sha tashkilotning kotibi Muhammadxon Ahmadxonovning xonadonidagi noqonuniy yig‘ilishlarda ishtirok etganlikda, “Qosimovchilik” va “Badriddinovchilik” aksilinqilobiy tashkilotlariga qo‘shilganlikda, mahalliy aksilinqilobchilar Ashurali Zohiriy, Abdullajon Juvonmardiyev, G‘affor Muhammadiyev va boshqalar bilan aloqa o‘rnatganlikda ayblangan.

Shuningdek, ayblov xulosasida uning omma oldida kolxozlashtirish siyosatiga qarshi chiqqanligi, “O‘zbekiston mustamlaka edi va mustamlaka bo‘yicha qolmoqda”, “Sovet davlati bizning davlat emas” deb aytganligi ko‘rsatib o‘tilgan edi. U tergovda ishchilar maoshining yarmi zayom, soliqlarga ushlab qolinayotganligi natijasida aholi kambag‘allashayotgani, yashash qiyinlashayotganligini aytganlikda ayblangan. Sovet hokimiyati xufiyalari uning “oldinlari bir oilada bir kishi ishlar, hamma to‘q edi, Sovet hokimiyati davrida esa oilada hamma ishlayapti, lekin hamma och”, “Sovet hokimiyati kambag‘allarni so‘nggi bir qarich yeriga ham paxta ekishga majburlayotgani, agar ular paxta topshirig‘ini bajara olmasalar, javobgarlikka tortilayotgani haqida gapirganini qayd qilganlar. Muhammadxon Xo‘jayev kechki pedagogika texnikumining SSSR xalqlari tarixi bo‘yicha o‘qituvchisini tarix fanini bilmaslikda ayblagan, o‘rniga tarixdan dars o‘tish taklif qilinganda “men faqatgina Sovet hokimiyati ag‘darilgandagina o‘qituvchilik qilaman” deb aytgan. U o‘zaro suhbatlarda “Mahalliy millat vakillari do‘konlarda navbatda turgan holatda yevropalik aholi mahsulotlarni navbatda turmasdan sotib olmoqdalar. Sovet hokimiyati mahalliy aholini arzimagan maosh uchun kecha-yu kunduz ishlashga majbur qilmoqda. Ishchilarning moddiy sharoitini yaxshilashni o‘ylamayapti, o‘zining huquqlarini talab qilgan ishchilar ishdan bo‘shatilmoqda” deb aytgan. Oqibatda uning ayblov ishini O‘zbekiston SSR NKVDsining “Uchligi”ga yuborishga qaror qilingan, o‘zini esa Qo‘qon turmasiga qamashgan.

1937-yil 19-oktyabrda O‘zbekiston SSR NKVD “Uchligi”ning qaroriga ko‘ra, Muhammadxon Xo‘jayev otuvga hukm qilingan. Hukm 1937-yil 7-noyabrda ijro etilgan. Oila a’zolariga uning ayanchli taqdiri haqida 80-yillar oxiriga qadar hech qanday ma’lumot berilmagan.

Oradan 51 yil o‘tgach, sobiq Ittifoq Oliy Soveti prezidiumining 1988-yil 16-yanvardagi “1930-40-50-yillarda qatag‘on qurbonlariga doir adolatni tiklash qo‘shimcha chora-tadbirlari haqida”gi qaroriga asosan, Muhammadxon Xo‘jayev 1988-yil 15-avgustda O‘zbekiston SSR prokurori birinchi o‘rinbosarining bergan xulosasiga asosan aybsiz deb topilib, vafotidan so‘ng reabilitatsiya qilindi.

Har yili mamlakatimizda 31-avgust – Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda. O‘zbekona an’anaga ko‘ra, shu kuni tongda el-u yurtga osh tortilib, ularning ruhlariga bag‘ishlab Qur’on tilovat qilinadi. O‘ylaymizki, keyingi yillarda juvonmarg bobolarning xotirasini abadiylashtirish borasida qilinayotgan amaliy ishlar, qator qaror va farmonlar, avvalo, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida muhim saboq bo‘lsa, qolaversa, tarixiy adolatning uzoq kutilgan tantanasi hisoblanadi.

R. SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
O‘.UBAYDULLAYEV,
dotsent,
J.IMINOV,
tarix fanlari nomzodi

XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Jo‘raboy qori Miris’hoqov – Namangan rayoni, Uychi qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, uylangan, savodli. Xususiy do‘konga ega bo‘lib, 1929-yilgacha savdo bilan shug‘ullangan. 1929-yili paxta topshirmagani uchun sudlangan.

To‘xtasin Boltaboyev – Namangan rayoni, Uychi qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, boy, yer-suv islohotida yeri musodara qilingan, uylangan, sudlanmagan.

Abduxalil Abdurazzoqov – Namangan rayoni, Uychi qishlog‘idan. Millati o‘zbek, O‘zSSR fuqarosi, sobiq bosmachi, o‘rtahol dehqon, sudlanmagan.

Muhammadsodiq Muhammedov – Namangan rayoni, Uychi qishlog‘idan. O‘zbek millatiga mansub. O‘zSSR fuqarosi, savdo bilan shug‘ullangan. Xususiy do‘konga ega, uylangan, sudlanmagan.

Mullajo‘raboy Bochchaboyev – Namangan rayonining Uychi qishlog‘idan. O‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, aniq mashg‘ulotga ega emas. Savodli, uylangan, sudlanmagan.

Otamirza Abdurahimov – Namangan rayoni, Uychi qishlog‘idan. O‘zSSR fuqarosi, dehqon, kambag‘al. Yer-suv islohoti davrida 6 tanob yer olgan. Uylangan, sudlanmagan. Aksilinqilobiy, bosmachilik tashkilotining Uychi yacheykasi bo‘yicha a’zolari va qo‘zg‘olonchilar armiyasi safiga askar sifatida kirishga rozilik bergan. O‘zSSR JK 58–67-moddasi hamda RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

Hasanboy Rustamov – Kosonsoy rayoni, Rovot qishlog‘idan. Qipchoq. O‘zSSR fuqarosi, boyning o‘g‘li, mulkdor, uylangan, sudlanmagan.

Madad Boboqulov – Kosonsoy rayoni, Rovot qishlog‘idan. Qipchoq. O‘zSSR fuqarosi, o‘ziga to‘q dehqon, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini olib-sotish bilan doimiy ravishda shug‘ullangan, uylangan, sudlanmagan.

Imomali Qosimboyev – Kosonsoy rayoni, Rovot qishlog‘idan. Qipchoq. O‘zSSR fuqarosi, dehqon, uylangan, sudlanmagan.

Rayimboy O‘rinboyev – Kosonsoy rayoni, Rovot qishlog‘idan. O‘zSSR fuqarosi, boyning o‘g‘li, o‘rtahol dehqon. Sobiq bosmachi, uylangan. Qo‘sh xotinli, sudlanmagan.

Mamadali Saidmurodov – Kosonsoy rayoni, Rovot qishlog‘idan. O‘zSSR fuqarosi, o‘ziga to‘q dehqon, uylangan, sudlanmagan.

Ahmadali Saidmurodov – Kosonsoy rayoni, Rovot qishlog‘idan. O‘zSSR fuqarosi, o‘ziga to‘q dehqon, uylangan, sudlanmagan.

Domullajon Abduqosimov – Kosonsoy rayoni, Rovot qishlog‘idan. O‘zSSR fuqarosi, o‘rtahol dehqon, uylangan, sudlanmagan. Aksilinqilobiy bosmachi, qo‘zg‘alonchilar Nosirxonto‘ra, Istambekni va ularning odamlarini oziq-ovqat bilan ta’minlagan. O‘zSSR JK 58–67-moddasi hamda RSFSR 58-2, 58-11-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

Mulla Usmon qori Dadaboyev – Namangan rayoni, O‘rta Mashhad qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, uylanmagan, sudlanmagan.

Mulla Alixon Azizboyev – Namangan rayoni, O‘rta Mashhad qishlog‘idan. O‘zbek millatiga mansub. O‘zSSR fuqarosi, o‘rtahol dehqon. Diniy maktabda o‘qigan, uylanmagan, sudlanmagan.

Mulla Abduqodir Mamatkarimov – Namangan rayoni, O‘rta Mashhad qishlog‘idan. O‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, madrasada o‘qigan. Hunarmand, uylangan, sudlanmagan..

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

TARIX VA TAQDIR

KARGAPOLI VOQEASI

yoxud Abdusalom akaning aytganlari

Bir kuni Chorsu bozorida joylashgan “Turon” kutubxonasining sobiq binosida “Zarafshon” gazetasining 20-yillardagi taxlamlarini varaqlab o‘tirgan edim. Tepamga bir kishi qiziqsinib keldi. Ko‘zida ko‘zildirik, qo‘ltig‘ida muallimlarning uniqib ketgan yelim papkasi, ko‘rinishidan ziyolinamo. Tanishib, bir-ikki og‘iz gaplashgan bo‘ldik. Abdusalom akaga yozayotgan tadqiqot mavzuimdan gapirdim. 20-yillarda yashab ijod qilgan munaqqidning 30-yillarda qamoqqa olinganidan so‘zladim. “Qamoq muddatini Kargapoli mahbusxonalarida o‘tagan”, deganimda suhbatdoshim o‘yga toldi. Allanimanidir eslagan bo‘ldi. Beixtiyor bir seskandi. “Kargapoli” so‘zi u kishini moziyga tortib ketdi. U bobosi – Abdusamad buva qismatidan so‘z ochdi va u kishining tilidan ajib bir hodisani gapirib berdi.

“Kargapoli qamoqxonasida mening o‘n to‘qqiz yillik umrim o‘tdi. Xudo bandasining boshiga solmasin bunday ko‘rgilikni. Hibsning oti o‘chsin. Birovning qosh-qabog‘iga, qo‘liga qaramsan. Buyruq-ko‘rsatma bilan nafas olib-nafas chiqarasan go‘yo. Har qadaming sanab turiladi. Ammo men do‘xtir bo‘lganim uchun nisbatan erkin, biroz imtiyozga ega edim. Kerak bo‘lib qolsam ular kasal mahbuslarga tashxis qo‘yish uchun mendan foydalanishardi. Betob mirshablarning holidan xabar olgan paytlarim ham bo‘ldi. Ammo ular juda ehtiyotkor. Ishonishmaydi. Berilgan hapdorilarni avval o‘zimda sinab, keyingina ichishardi. Kim bilsin, zahar berayotir deb hayiqisharmidi.

Bir kecha uxlab yotgan edim (kasbim hurmatiga “ichkari”dagilar “Do‘xtir buva” deb chaqirishardi) “Do‘xtir buva, turing, gap bor”, dedi savlatli, shopmo‘ylov, sap-sariq navbatchi mirshab o‘rischalab. Hayron bo‘lganimni ko‘rib qo‘shimcha qildi: “Bittasi o‘lib qolibdi. Akt tuzib, rasmiylashtirishimiz kerak”. Apil-tapil kiyinib unga ergashdim.

Shopmo‘ylovning aft-angoridan biror narsani uqish ham, o‘qish ham qiyin. Qiyofasi mutlaqo majhul, gapirmaydi. Jim. Hech narsa ma’lum emas. Ammo kimdir o‘lgan. Xo‘sh, kim? O‘ylab boryapman. Shu zaylda keta tursak, yonimizga yana uch mirshab qo‘shildi. Beshovlon yerto‘ladagi maxsus kameralarning panjarali temir eshiklari tomonga yo‘naldik. Menga bu yo‘laklar tanish. Xizmat yuzasidan kichik qafaslar eshigini ko‘p bora taqillatganman, ochganman, kirganman. Bexosdan yuragim “shuv” etdi. Chunki mirshablardan biri Saidnosir eshon kamerasi oldida to‘xtadi. “Eh, – dedim ichimda, – Eshonga nimadir... Yaxshi inson edi. Nahotki?” O‘zimga ishonmayman. Mirshablar bir saf bo‘lib tizilib olishdi. O‘zaro o‘rischalab shivir-shivir qilishdi:

“Qattiq urding”.


“Kim bilibdi o‘lib qolishini”.

“Quladi-yu hushidan ketdi. Tomirini ushlasam, tinchigan. O‘lik”.

“Endi biz kichkina odammiz, topshiriqni bajardik-da”.

“O‘z joniga o‘zi qasd qilgan. Mana Do‘xtir buva tasdiqlab imzo qo‘yadi”.

Bu allaqanday soniyalarda yuz berayotgan gaplar. Shu mahal men o‘likni ko‘rishga yuragim betlamay, eshikni ochishdan avval darchadan sekin mo‘raladim. Subhanalloh! Ne ko‘z bilan ko‘rayki, Saidnosir aka qiblaga qarab namoz o‘qib o‘tiribdi. Navbatchi mirshab ichkari kirishga undab: “Davay, davay”, dedi. “Biroz sabr qilaylik, ibodat qilayotir”. Mirshablar bu gapimdan hang-u mang bo‘lib qolishdi. “O‘lgan edi-ku! Qanday tirildi?” O‘zaro pichirlashib bahslasha ketishdi: “Boshliqqa nima deb javob beramiz?” Tasavvurimda Saidnosir aka uzala tushib, yerbag‘irlab yotibdi, yuzlari momataloq. Og‘zidan qoni kelgan edi go‘yo. U ikki yoniga salom berib,



qisqa duo qildi. Yuziga fotiha tortgach, ortiga o‘girildi va meni ko‘rib dediki: “Tinchlikmi, Abdusamad og‘ayni, yarim tunda?” Bir muddat duduqlandim, tilimga so‘z kelmadi. Bazo‘r: “Doimgi ishimiz, taqsir, sizlardan bir-bir xabar olib yuribmiz. Ahvollar yaxshimi? Kamchiliklar yo‘qmi?” dedim o‘zimga mirshablar safidan joy berib.

To‘rt mirshabga ergashib ortga qaytdim. Joyimga borib yotishim buyurildi. Biroq ko‘zga uyqu kelmadi. Hali tong yorishmasdan yo‘qlagan boshliq eshikdan kirmasimdanoq o‘dag‘aylab ketdi: “Sening yurtdoshing (“zeming”) ekan, sen o‘zbeklar millatchi bo‘lasanlar. Gapir, qanaqa ukol qilding? Qanday tiriltirding?” Dag‘dag‘aning ma’nosini shunda angladim. Men tiriltirgan emishman. “Eshigidan kirmadim, yoniga yo‘lamadim. Ana, mirshablar guvoh”, desam battar tutaqdi. Oxiri asabim chidamadi. “Qanday tiriltirding?” Bu savol qayta so‘ralganda, butun jasoratimni tilimga jamlab aytdimki: “Mendan so‘rab nima qilasiz? Allohdan so‘rang. U zot bilguvchiroq”. Xonada u yoqdan-bu yoqqa yurib turgan boshliq taqqa to‘xtadi. So‘ngra menga ruxsat tegdi. Boshqa bezovta ham qilishmadi.

Saidnosir aka bilan hibsxonada ko‘p bora yuzma-yuz keldim. Ammo o‘sha tundagi tashrifimiz sababini ochiq aytmadim. U kishi ham so‘ramadilar”.

Birgina Kargapoli nomi Abdusalom aka xayolida shu xotirani jonlantirdi. Enam rahmatli: “Qirq yil qirg‘in bo‘lsa-da, qazosi yetgan o‘ladi”, derdilar. Saidnosir eshonning qazosi yetmagan ekan. 1956-yili eson-omon oilasi bag‘riga qaytibdi.

Bahodir NURMUHAMMAD



Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5 924
Lotin yozuvidagi adadi – 11 924
Media kuzatuvchilar – 20 009
Buyurtma: G – 840.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:45
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz

TARMOQLARDA NIMA GAP?

BAYROQ – VATAN TIMSOLI



Uyida to‘y qilishni mo‘ljallagan odam to‘ydan uch-to‘rt kun avval qanday hayajonda bo‘lishi faqat uning o‘zigagina ma’lum bo‘ladi. Uni chiroyli o‘tkazish uchun har xil bezaklar, turli dekoratsiyalar qidirib, xayolan ularni joylashtirib ham chiqadi. Men ham ikki kundan so‘ng bo‘lib o‘tadigan shunday bir ulkan to‘y oldida turibman. Bu to‘y nafaqat mening uyimda, balki butun mamlakatimizda quvonch bilan nishonlanadi. Bu o‘sha – ustoz shoir Abdulla Oripov ta’biri bilan aytganda “yelkamizga oftob tekkan” kun. Shoir cheksiz quvonch bilan deydiki:

Adolatning hayotbaxsh shamollari yeldimi,
Haq nihoyat xalqimning arzin qabul qildimi.
Necha yillar orziqib kutgan kunlar keldimi,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin,
O‘zbekni o‘z niholin ekkanligi rost bo‘lsin...

Bugun mana shu porloq kelajagimizga umid niholini qadaganimizga o‘ttiz uch yil to‘ldi. Bu bir ko‘rkam yigit, bir suluv qiz umri. Bu bir ertangi kuni porloq mamlakatning mustahkam e’tiqod bilan ming mashaqqatlardan o‘tib, rivojlanib borayotgan davriga ketgan vaqtdir.

Xullas, ertalab ishga ketish oldidan mana shu o‘ttiz uch yillik shodiyonaning quvonch-u iftixorini to‘la ifodalab berishga qodir dekoratsiya haqida o‘ylay boshladim. Qayerdan? Poytaxtimiz ko‘chalaridan. Shunda go‘zal manzara diqqatimni tortdi: Svetoforning qizil chirog‘ida bir mashina to‘xtab turibdi. Uning orqa oynasida muhtasham yurt bayrog‘i. Ostida esa “O‘zbekiston – mening Vatanim!” degan yozuv.

Mening e’tiborimni o‘ziga tortgan tarafi, yurt bayrog‘i jilosi edi. Ko‘z oldimdan ko‘p narsalar o‘tdi. Haj ziyoratini niyat qilib yo‘lga chiqqan vodiylik bir otaxon velosipediga bayrog‘imizni qadab olgandi. Otaxon to manzilga yetguncha nechta davlat sarhadlaridan o‘tadi. Shu bir bayroq timsolida otaxonning o‘zbekistonlik ekanidan ko‘nglida g‘urur jo‘sh urganini ko‘rish mumkin. Beixtiyor tilga chiqmas hissiyot to‘lqinlantirib yubordi. “Voh” dedim, mashinalarga, veliklarga, telefon g‘iloflariga, hattoki futbolka-yu kepkalarga tushirilgan bayrog‘imiz rasmi ko‘z oldimga keldi. Go‘zal manzara, to‘g‘rimi? Chet ellarga ilm-u izlanish maqsadida ketgan hamyurtlarimiz ham tug‘ilib o‘sgan yerini sog‘inib, uning ramzi bo‘lgan bayroqni doim yonidan qo‘ymay olib yurishga intilishadi. O‘zbeklar dunyoga chiqayotganini ijtimoiy tarmoqlarda kuzatish insonga o‘zgacha zavq beradi.

Bayroq har millatning e’tiqodini, orzu-maqsadini, kimligini ko‘rsatib turguvchi muhim timsoldir. O‘zbekistonimiz qadar yuksalib borayotgan Vatan bayrog‘ini svetoforning qizil chirog‘ida to‘xtab turgan ayni chog‘imda guvoh bo‘lgan holatimdan so‘ng chandon-chandon ko‘proq sevdim. Evrika! Ha, men topdim, tantana bezagini topdim. O‘zingiz o‘ylang, shunday go‘zal manzaradan bo‘lak yana qanday bezak borki, to‘yga alohida ko‘rk berib tursa?! Bugunoq Vatanimizning yuragimga o‘yib tushirilgan bayrog‘ini o‘z uyimga olib borib ilaman. Ajabtovur hissiyotlardan to‘lqinlanib ketdim. Endi shu ishni bajarmaguncha qani mening qalbimda tinchlik bo‘lsa.

Vatanning sof havosidan
nafas olmoq sharaf menga,
Uning ko‘rkam jamoliga
nazar solmoq sharaf menga.
Vatan tuprog‘ida mangu
yashab qolmoq sharaf menga,
Saodatli diyorim – O‘zbekiston omon bo‘lsin!

– deya shoir bitgan misralarni takrorlayman-u tinchligimizning, purviqorliligimizning boqiy bo‘lishini niyat qilaman. Azizlar, barchangizga qutlug‘ to‘yimizning o‘ttiz uch yilligi muborak bo‘lsin!

Mohirbek QO‘CHQOROV,
Facebook